

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MOLIYAVIY MENEJMENT FAKULTETI

“KASBIY TA’LIM” KAFEDRASI

YULDASHEV BEXZOD RAXIMJON O‘G‘LI
“XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MOLIYAVIY
HISOBOT SHAKLLARI VA ULARNI TUZISH” MAVZUSINI
O‘QITISHDA “ESSE” VA “CASE STUDY” METODLARINI QO‘LLASH

*5111000 – “Kasbiy ta’lim (5230900–Buxgalteriya hisobi va audit)” bakalavriat
ta’lim yo‘nalishi*

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

“Moliyaviy menejment” fakulteti
dekani, i.f.n., dots. **Astanakulov O.**

“Kasbiy ta’lim” kafedrası mudiri
i.f.d., prof. **Omonov A.**

2017 yil “__” _____

2017 yil “__” _____

Ilmiy rahbar: _____ dots.To‘laboyev M.
Ilmiy maslahatchi: _____ o‘q.Xaydarov A.

Bitiruvchi: _____ B.Yuldashev

TOSHKENT - 2017

MUNDARIJA

	betlar
KIRISH	3
1-BOB. XO`JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MOLIYAVIY HISOBOT SHAKLLARI VA ULARNI TUZISHNING ILMIY- NAZARIY ASOSLARI	7
1.1. Xo`jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobot shakllari va ularni tuzishning ahamiyati, maqsadi va vazifalari	7
1.2. Xo`jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobot shakllari va ularni tuzishning uslubiyati va tahlili	16
1-bob bo'yicha xulosa	35
2-BOB. X XO`JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MOLIYAVIY HISOBOT SHAKLLARI VA ULARNI TUZISH AMALIYOTI.....	37
2.1. Xo`jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobot shakllari va ularni tuzish tartibi hamda amaliyotdagi holati	37
2.2. Xo`jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobot shakllari va ularni tuzish amaliyotini takomillashtirish masalalari	41
2-bob bo'yicha xulosa.....	45
3-BOB. “XO`JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MOLIYAVIY HISOBOT SHAKLLARI VA ULARNI TUZISH” MAVZUSINI O`QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	47
3.1. Mavzuni o`rganishda “esse” va “case study” metodlarini qo`llashning nazariy-ilmiy asoslari	47
3.2. “Xo`jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobot shakllari va ularni tuzish” o`qitishda “esse” va “case study” metodlarini qo`llash samaradorligini oshirish.....	54
3-bob bo'yicha xulosa	59
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	60
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI	63

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini yanada rivojlantirishni ro‘yobga chiqarish maqsadida Respublikamiz Prezidenti tashabbusi bilan ishlab chiqilgan 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasida moliya bozorini rivojlantirish, milliy iqtisodiyot tarkibida sanoat, xizmat ko‘rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko‘paytirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlari raqobatdoshligini oshirish, ta‘lim va fan sohasini rivojlantirish, ta‘lim-tarbiya sohasining yaxlit, uzluksiz tizimini shakllantirish va mustahkamlash kabi dolzarb vazifalar belgilangan”¹. Shu sababli mamlakatimizda buxgalteriya hisobi va barcha iqtisodiy fanlarni chuqur o‘rganish, us-hbu fanlarni o‘qitish metodikasini takomillashtirish, iqtisodiy ong, iqtisodiy madaniyat, iqtisodiy tafakkur va ishbilarmonlik sifatlarini shakllantirish shu kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Hozirda iqtisodiyotdagi islohotlarni chuqurlashtirish, modernizatsiya va diversifikatsiyalashga alohida diqqat qaratilishi sharoitida respublikamiz ta‘lim tizimi oldiga mamlakatimizning ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy rivojini ta‘minlashga o‘zi tanlagan mutaxassislik bo‘yicha bozor iqtisodiyoti sharoitida mustaqil ishlashga layoqatli, yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni asosiy vazifa qilib qo‘yadi.

Kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, bo‘ljak iqtisodchi pedagoglarda chuqur bilim, malak va ko‘nikmalarni shakllantirish, zamonaviy innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishni o‘rgatish, ijodiy izlanishga yo‘naltirish, intefaul metodlarni mukammal bilish va ulardan mohirona foydalanish mavzuning dolzarbligini yana bir bor ta‘kidlaydi.

«Ta‘lim- tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to‘g‘risida»gi Farmoni (08.10.1997 yil),

¹. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni

«Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni hayotga tadbiq etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu dasturiy hujjatlarda kadrlarning mamlakatimizni iqtisodiy ravnaq topishini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynashi hisobga olingan. Ularda kasb madaniyati yuqori bo'lgan, yuksak malakali, professional mutaxassislarni tayyorlash asosiy vazifalardan ekanligi ta'kidlab o'tilgan. Bunday kadrlar kelajakda yurt ravnaqi uchun xizmat qilib, uning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini yangi bosqichga olib chiqadi. Shunday ekan, hozirgi kunda kadrlarni tayyorlashga bevosita aloqador bo'lgan ta'lim jarayonining yo'lga qo'yilishi zamon talabidir. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov bu masalaning dolzarbligini quyidaicha ta'kidlagandilar: "Biz oldimizga qanday vazifa qo'ymaylik, qanday muammoni yechish zaruriyati tug'ilmasin, gap oxir - oqibat baribir kadrlarga borib taqalaveradi. Mubolag'asiz aytish mumkinki, bizning kelajagimiz, mamlakatimiz kelajagi o'rnimizga kim kelishiga yoki boshqacharoq aytganda, qanday kadrlar tayyorlashga bog'liq"²

Mustaqil O'zbekistonimizda islohatlar tobora ko'p amalga oshirilmoqda.

Hayotimizning barcha jabhalarida, jumladan yosh avlod ta'lim-tarbiyasida ham keskin o'zgarishlar sodir bo'lmoqda.

Respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy kamoloti yosh avlodning sa'i harakatlariga bog'liq ekanligi endi hech kimga sir emas. O'sib kelayotgan yosh avlod va ularning kelajakda qanday kasb egallashlariga qarab, respublikamiz kelajagini tasavvur qilsa bo'ladi.

Kelajakda erishishimiz lozim bo'lgan buyuk maqsadlarga yetishish uchun eng avvalo yuqori malakali, zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlar tayyorlashimiz kerak.

Shu bilan birga Iqtisodiy fanlarda dars berishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ko'ngildagidek bilimdon mutaxassis kadrlar tayyorlash, inson

² Karimov I.A. "Barkamol avlod orzusi". T."Sharq". 1998, 83-bet.

salohiyatini yuzaga chiqarish esa har jihatdan o'qituvchilarga, ularning bilimdonlik bilan o'qitish jarayonini tahlili qilishi va dars berishiga bog'liq.

Shu nuqtai nazardan bitiruv malakaviy ishim, ya'ni "Xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobot shakllari va ularni tuzish" mavzusini o'qitishda "esse" va "case study" metodini qo'llash mavzusi bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining o'rganilganlik darajasi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobot shakllari va ularni tuzish mavzusini tadqiq etish davomida bu mavzu Jo'rayev N. "Moliyaviy hisobot", Qurbonboyev J. "Moliyaviy hisob" nomli darslik va o'quv – qo'llanmalarida yoritilganligi aniqlandi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobi esa B.Xoshimov, B.Hasanov, A.Karimov va xorijiy tadqiqotchilar K.A.Abalkin, K.N.Moligova va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Tojiboyeva D. "Mahsus fanlarni o'qitish metodikasi" kitoblarida esa buxgalteriya hisobi fanini o'qitish metodikasiga oid tavsiyalar berilgan. Lekin, Xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobot shakllari va ularni tuzish mavzusini o'rganishni interaktiv metodlar, "Esse" va "Case study" dan foydalanib o'qitishni tashkil masalalari o'rganib chiqilmagan va bu narsa biz uchun mavzuni tanlash uchun turtki bo'ldi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Mavzuni o'rganishda, ulardagi tushunchalarni chuqur o'zlashtirishda amaliy muammolarni tadqiq qilish va yechish katta ahamiyatga ega ekanligi, hamda mavzu bo'yicha amaliyot bilan hamohang metodlar tadqiq qilingan adabiyotlar kamligi mazkur bitiruv malakaviy ishini yoritishni, bajarishni maqsad qilib qo'yishimizga turtki bo'ldi.

Qo'yilgan maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- korxona moliyaviy hisobotini shakllantirish jarayoni tahlili;
- moliyaviy hisobot tuzish jarayonidagi yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish yo'llarini o'rganish;
- mavzuni o'rganishda zamonaviy metodlarning dars o'tish tizimida tutgan o'rnini aniqlash;

➤ mavzu bo'yicha dars o'tishda samarali metodlardan foydalanish va ularni yuzasidan topshiriqlar tayyorlash;

➤ mavzu bo'yicha amaliy muammolarni yechishdagi muammolarni o'rganish;

➤ mavzuni "esse" metodini qo'llash orqali o'rganish va undan samarali foydalanish mezonlarini aniqlash;

➤ mavzu bo'yicha dars o'tishda "case study" metodini qo'llashni takomillashtirish.

Yuqoridagi maqsad va vazifalarni o'z oldimizga qo'ygan holda tadqiqot olib bordik.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti. Ishning tadqiqot obyekti iqtisodiy sohadagi ta'limdoo'qitiladigan "Moliyaviy hisob" fanining « Xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobot shakllari va ularni tuzish» mavzusi hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishiningpredmeti.Predmeti esa dars o'tish uchunpedagogik texnologiyalarni tanlash, mavzuga moslashtirish va uni o'rganish uchun topshiriqlar ishlab chiqish va ularni qo'llashdir.

Mavzuning nazariy va amaliy ahamiyati. Mavzuning o'ziga xos xususiyatlarini mustaqil o'rganishda "esse" va "case study" metodlarining o'rni va ularning ahamiyati, samarali metodlarning qo'llanilish yo'llari yoritilganligi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uch bob, xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Bitiruv malakaviy ishidan shuningdek,bir qancha jadval va chizmalaro`rin olgan.

1-BOB. XO`JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MOLIYAVIY HISOBOT SHAKLLARI VA ULARNI TUZISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1 Xo`jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobot shakllari va ularni tuzishning ahamiyati, maqsad va vazifalari

Mamlakatimiz Mustaqillikka erishgach, bozor iqtisodiyotiga o`tishning o`ziga xos bosqichma-bosqich o`tish yo`li tanlab olindi. Ana shu yo`l uzra barcha sohada bo`lgani kabi iqtisodiyotda ham bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Buxgalteriya hisobi tizimida ham tizim bozor iqtisodiyoti talablari hamda moliyaviy hisobotning jahon standartlariga javob berishi maqsadida yildan yilga hisob yurituvchilar va ularni nazorat qiluvchi tashkilotlar uchun aniqlik, qulaylik yaratib beruvchi yangiliklar va o`zgarishlar joriy qilinmoqda.

Iqtisodiyotda buxgalteriyaning o`rni va vazifasi aniq qilib belgilab olingan. Xususan, O`zbekiston Respublikasining 1996-yil 30-avgustda qabul qilingan “Buxgalteriya hisobi to`g`risida”gi 24 moddadan iborat qonuni buxgalteriya hisobining uchta asosiy vazifasini belgilab berdi:

1. Buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida aktivlarning holati va harakati, mulkiy huquqlar va majburiyatlarning holati to'g'risidagi to'liq hamda aniq ma'lumotlarni shakllantirish;

2. Samarali boshqarish maqsadida buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini umumlashtirish;

3. Moliyaviy, soliqqa doir va boshqa hisobotlarni tuzish.

Har bir xo`jalik yurituvchi subyekt o`z faoliyati qonuniy yo`lga qo'yilganligi, korxona faoliyati ijobiy yoki salbiy natija berayotganligi haqida ichki va tashqi foydalanuvchilarga ma'lumot berish maqsadida moliyaviy hisobotni taqdim etadi. Yuqorida keltirilgan qonunga muvofiq moliyaviy hisobot quyidagi asosiy shakllarni o`z ichiga oladi:



1-rasm. Moliyaviy hisobot shakllari³

Kichik va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining moliyaviy hisoboti soddalashtirilgan shaklda tuziladi.

Byudjet tashkilotlarining moliyaviy hisoboti byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq tuziladi va taqdim etiladi. Moliyaviy hisobotning tarkibi va mazmuni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Sho'ba korxonalari, filiallari va vakolatxonalari bo'lgan korxonalar umumlashtirilgan moliyaviy hisobot tuzadi. Sho'ba korxonalarga qo'shilgan hissalar bosh korxonaning moliyaviy hisobotida uning moliyaviy qo'yilmalari sifatida aks ettiriladi. Yuridik shaxslar o'z filiallari, vakolatxonalari va boshqa tarkibiy bo'linmalarini mustaqil balansga ajratishlari mumkin bo'lib, ularning balanslari va boshqa hisobot shakllarini o'zlarining umumlashtirilgan hisobotiga kiritishlari shart. Umumlashtirilgan hisobotga bosh korxona, uning sho'ba korxonalari, filiallari va vakolatxonalarning moliyaviy hisobotlari ilova qilinadi. Umumlashtirilgan hisobot buxgalteriya hisobi standartlariga muvofiq tuziladi.

Moliyaviy hisobot quyidagilarga taqdim etiladi:

➤ soliq organlariga;

³Adabiyotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

- ta'sis hujjatlariga muvofiq mulkdorlarga;
- davlat statistika organlariga;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa organlarga.

Moliya hisoboti hisobot yili boshdan qo'shilib boruvchi jamlanma tartibida yilning har choragida taqdim etiladi.


Moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatlarini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi buxgalteriya hisobining ayrim sub'ektlari uchun moliyaviy hisobotni taqdim etishning boshqa muddatlarini belgilashi mumkin.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning yillik moliyaviy hisoboti manfaatdor banklar, birjalar, investorlar, kreditorlar va boshqalar uchun oshkora hisoblanadi. Ochiq turdagi aktsiyadorlik jamiyatlari, sug'urta kompaniyalari, banklar, fond va tovar birjalari, investitsiya fondlari va boshqa moliya muassasalari har yilgi moliyaviy hisobotni ularda ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riligini auditorlar tasdiqlagach, hisobot yili tugaganidan so'ng birinchi maygacha e'lon qilishlari shart.⁴

Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'z faoliyatini boshqarish uchun subyekt faoliyat olib borgan istalgan davrdagi o'z ixtiyoridagi mablag'lar va aktivlar, ularning qayerdan tashkil topganligi manbalari zarur. Xo'jalik yurituvchi subyekt bunday ma'lumotlarni buxgalteriya balansi tarkibidan olishi mumkin.

Buxgalteriya balansi — buxgalteriya hisoboti aniq hisobot sanasida yakunlovchi, mablag'larning sarflanishi, manbai va maqsadini ta'riflovchi, jamlovchi, umumlashtirilgan jadvalda pul hisobida aks ettiruvchi hujjat. Buxgalteriya balansi korxona, tashkilot, firma va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mulkiy holatini qiymat ko'rinishida ta'riflab beradi. Buxgalteriya balansi umumlashtirilgan jadval shaklida korxonaning mulklari tarkibini, ularning joylashtirilishini, manbalarini, mablag'larning sarflanishi va safarbar etilishini hisobot sanasida qiymat jihatidan aks ettiradi.

⁴O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni 1996-yil



2-rasm. Buxgalteriya balans tarkibi⁵

Uzoq muddatli aktivlarga asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, uzoq muddatli investitsiyalar va korxona tomonidan sotib olingan aksiyalar kiradi. Korxona o'z faoliyatini yuritish davomida joriy davrda bu aktivlar o'z qiymatini o'zgartirmaydi yoki korxona faoliyati aktivlar qiymati o'zgarishiga ta'sir o'tkazmaydi.

Joriy aktivlar tarkibiga tovar moddiy zaxiralar, debitorlik qarzlari, pul mablag'lari kiradi. Joriy aktivlar xo'jalik yurituvchi subyekt joriy operatsiyalar oborotining asosini tashkil qiladi.

Korxona balansining aktiv qismi orqali quyidagi ma'lumotlarni o'rganishimiz mumkin:

- balans tuzilgan kunda korxonada qanday aktivlar bo'lgan;
- ular qanday joylashtirilgan;
- ularning korxona faoliyatidagi roli qanday.

O'z mablag'lari manbai ustav kapitali, qo'shilgan kapital, rezerv kapitali, taqsimlanmagan foyda qismlardan iborat.

⁵Adabiyotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Majburiyatlar ikki turga bo'linadi: joriy va uzoq muddatli.

Joriy majburiyatlar yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qarzarlar, alohida bo'linmalarga qarzarlar, shu'ba va tobe xo'jalik jamiyatlariga qarzarlar, muddati kechiktirilgan daromadlar, soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha muddati kechiktirilgan majburiyatlar, boshqa muddati kechiktirilgan majburiyatlar, olingan bo'naklar, byudjetdan soliqlarga oid qarzarlar, sug'urtaga oid qarzarlar, davlat maqsadli jamg'armalaridan to'lovlarga oid qarzarlar, ta'sischilardan qarzarlar, mehnatga haq to'lashga oid qarzarlar, qisqa muddatli bank kreditlari, qisqa muddatli qarzlardan iborat.

Uzoq muddatli majburiyatlar mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga uzoq muddatli qarzarlar, alohida bo'linmalarga uzoq muddatli qarzarlar, shu'ba va tobe xo'jalik jamiyatlariga uzoq muddatli qarzarlar, muddati kechiktirilgan uzoq muddatli daromadlar, soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha muddati kechiktirilgan majburiyatlar, xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo'naklar, uzoq muddatli bank kreditlari, uzoq muddatli qarzarlar va boshqa uzoq muddatli kreditorlik qarzlari va boshqalardan iborat.

Agar korxona kredit bitimiga binoan uzoq muddatli asosda majburiyatlarni qayta moliyalashni nazarda tutayotgan bo'lsa, uzoq muddatli majburiyatlarning joriy ulushi joriy majburiyatlardan chiqarib tashlanadi. Bunday holda majburiyatlar summasi va qayta moliyalash shartlari oshkor etilishi kerak.⁶

Buxgalteriya balansida muayyan sanaga (yil boshi va oxiriga) bo'lgan xo'jalik mablag'lari va ularning manbalari aks ettirilgan. Balansning ayrim moddalarini izoh berish (rasshifrovka qilish) uchun moliyaviy hisobotda buxgalteriya balansi bilan birga o'zaro bog'langan hamda bir-birini to'ldiradigan bir qator hisobot shakllari nazarda tutiladi.

Moliyaviy natijalar – xo'jalik yurituvchi su'yektning ma'lum hisobot davrida tadbirkorlik faoliyati jarayonida o'ziga qarashli mablag'ning oshishi yoki kamayishidir.

⁶15-sonli "Buxgalteriya balansi" nomli buxgalteriya hisobi milliy standarti

Buxgalteriya hisobida bunday faoliyat natijasi hisobot davridagi barcha foydalar va zararlarni hisoblash yo'li bilan aniqlanadi.

Yuqoridagi ta'rifdan ko'rinib turibdiki, moliyaviy natijalarni aniqlash uchun ma'lum bir davrdagi olingan daromadlar bilan qilingan xarajatlarni taqqoslash, ya'ni olingan daromadlardan qilingan xarajatlarni ayirish lozim.

Moliyaviy natijalar ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Ijobiy moliyaviy natijada olingan daromad qilingan xarajat summadan yuqori bo'ladi va uni foyda sifatida tan olinadi. Moliyaviy natijada qilingan xarajat olingan daromad summasidan ortib ketsa, u zarar hisoblanadi. Ammo moliyaviy natijaning qator ko'rsatkichlari mavjud bo'lib, ularning barchasi moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda o'z aksini topadi va ushbu hisobot davridagi daromadlari va xarajatlari to'g'risidagi oraliq va yakuniy ma'lumotlar bilan ta'minlaydi. Daromad va xarajatlarni taqqoslash orqali quyidagi ko'rsatkichlari aniqlanadi:

Mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda (zarar); asosiy faoliyatdan olingan foyda (zarar); umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda (zarar); moliyaviy faoliyatdan olingan foyda (zarar); soliq to'laguncha bo'lgan foyda (zarar); soliqqa tortiladigan foyda (zarar); favqulodda foyda (zarar); sof foyda (zarar).

Ushbu moliyaviy natija ko'rsatkichlari muhim ahamiyatga ega va turli xil maqsadlar uchun qo'llaniladi. Jumladan, ular hisobot davrida korxona faoliyatining samaradorligini baholashda va tahlil qilishda mustaqil o'rinni egallaydi. Ayniqsa samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlashda foydalaniladigan soliq to'laguncha bo'lgan foyda, mahsulot sotishdan olingan foyda va korxonaning sof foyda ko'rsatkichlari muhim ahamiyatga ega.

Korxonaning iqtisodiy ko'rsatkichlarini to'g'ri aniqlash daromad va xarajatlarni to'g'ri tasniflash bilan bevosita bog'liq.

«Xarajatlar tarkibi to'g'risida»gi Nizomga muvofiq korxonalarning xo'jalik faoliyati natijasida oladigan daromadlari quyidagi asosiy bo'limlar bo'yicha guruhlanadi:

Mahsulot sotishdan olingan sof tushum; asosiy faoliyatning boshqa (operatsion) daromadlari; moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar; favqulodda daromadlar.

Daromadlarning bunday guruhlanishi, korxonaning turli xil faoliyatidan olingan daromadlarini hisobotda alohida ko'rsatish zarurati bilan izohlanadi. Bu korxona faoliyati bilan qiziquvchi tomonlar uchun zarur ma'lumotlarni shakllantirish imkonini beradi.

Korxona faoliyatining sof moliyaviy natijasini aniqlash uchun hisobot davrida qilingan barcha sarf va xarajatlar to'g'ri taqsimlanishi lozim.

Barcha xarajatlar, ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotlar tannarxiga kiritiladigan xarajatlarga va tannarxga kiritilmaydigan, ammo davr xarajatlarga kiritiladigan xarajatlarga bo'linishi zarur.

Davr xarajatlari, soliq to'laguncha bo'lgan foydani hisoblashda inobatga olinadi. Bundan tashqari moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda moliyaviy faoliyat va favqulodda holat bo'yicha xarajatlar ham alohida ko'rsatiladi.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda daromadlar olish bilan bog'liq xarajatlarni quyidagi guruhlar bo'yicha ko'rsatish mumkin:

1. Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi;
2. Davr xarajatlari;
3. Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar;
4. Favqulodda zararlar.

Yuqorida keltirilgan daromad va xarajat moddalari korxona xo'jalik faoliyatining natijalarini aniqlashda juda muhim ahamiyatga ega. Chunki hisobot davridagi aynan shu daromad va xarajatlarning to'g'ri hisobga olish faoliyati natijalarini aniq hisoblash imkonini beradi. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning mazmuni shundan iboratki, unda korxona xo'jalik faoliyatining yakuniy va oraliq moliyaviy natijalarini ularning alohida daromad (foyda) xarajat (zarar) ko'rsatkichlarini taqqoslash va qo'shish orqali aniqlanadi.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning mohiyati shundan iboratki, u korxona faoliyati to'g'risidagi iqtisodiy ko'rsatkichlarni shakllantirish bilan

birgalikda uning samaradorligi va moliyaviy barqarorligini tavsiflash uchun zarur ma'lumotlarini ham o'zida aks ettiradi. Agar buxgalteriya balansi korxonaning mol–mulki mablag'lari kapitali va majburiyatlari, ya'ni korxonaning ishlab chiqarish vositalari va mehnat predmetlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zida mujassam qilsa, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotiga korxonaning mehnat vositalari predmetlari va ishchi kuchidan foydalanish natijasida olingan ko'rsatkichlarni beradi. Shuning uchun ham uning ma'suliyatlari tashqi va ichki foydalanuvchilar uchun birday ahamiyatlidir.⁷

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot-korxona faoliyatining muayyan hisobot davridagi pul mablag'larining holatiga va joriy davrda pul mablag'larining o'zgarishini tavsiflovchi ma'lumotlar olish imkonini beradi.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot shakli korxonani samarali boshqarish uchun zarur axborotlarni berish bilan birgalikda tashqi foydalanuvchilar uchun kerakli bo'lgan ma'lumotlarni ham shakllantiradi.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari investorlar va kreditorlar uchun quyidagi masalalarning yechimini topish uchun nasos bo'ladi:

- kelib tushgan va sarflangan pul mablag'larining tuzilmasi;
- pul mablag'larining kelib tushishi va sarflanishi summasi;
- kelib tushgan va sarflangan pul mablag'lari nisbat koeffitsiyenti (pul mablag'lari oqimi koeffitsiyenti).

«Pul oqimlari to'g'risida»gi hisobot boshqa hisobot shakllari bilan birgalikda korxonaning eng likvid aktivlaridagi o'zgarishlarni, uning moliyaviy tuzilmasini (jumladan, likvidlik va to'lovga layoqatliligini), korxonalarning qiyoslama baholash maqsadida kelgusi pul oqimlarining joriy qiymatini modellashtirish imkonini beradigan doimiy ravishda o'zgaruvchi tashqi va ichki omillar sharoitida pul oqimlari harakatini tartibga solish layoqatini baholash va tushunishga xizmat qiluvchi axborot taqdim etilishini ta'minlaydi.

Xalqaro buxgalterlar assotsiatsiyasi (FASV kengashi) taqdimotiga ko'ra, "Pul mablag'larining harakati to'g'risida"gi hisobotning asosiy maqsadi qilib

⁷N.Yu.Jo'rayev. Moliyaviy hisobot. O'quv qo'llanma. TDIU. T.: 2007

kompaniyaning barcha investorlari va kreditorlarini pul mablag'lari harakati to'g'risidagi ma'lumotlar bilan yetarli darajada ta'minlash.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotda hisobot davri davomidagi pul oqimlari aks ettiriladi va ular quyidagi shakllarda tavsiflanadi:

- operatsion faoliyati;
- investitsion faoliyati;
- moliyaviy faoliyat.

Operatsion faoliyat pul oqimlarining hajmi korxonaning ssudalarni to'lash uchun yetarli pul mablag'larini yig'ish, ishlab chiqarish darajasini saqlash, dividendlarni to'lash va tashqi moliyalashtirish manbalarni jalb qilmay yangi kapital qo'yilmalarni amalga oshirish ishlarini qila olishining asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Operatsion faoliyatining pul oqimlari birinchi navbatda, asosiy faoliyatdan daromad olishning natijasini ko'rsatadi.

Investitsion faoliyat - pul ekvivalentlariga kirmaydigan uzoq muddatli aktivlarni va boshqa investitsiyalarni sotib olish va sotish, to'lanadigan kreditlarning berilishi va olinishi.

Moliyaviy faoliyat - bu faoliyat natijasida tashkilotning xususiy kapitalining va qarzlarining hajmida va tuzilishida o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot korxona xususiy kapitalining hisobot davri boshiga va oxiriga bo'lgan holati, korxonaning shu davr mobaynida xususiy kapital miqdoriy jihatidagi o'zgarishlar haqida ma'lumot beradi.

Xususiy kapital tarkibi:

- Ustav kapital (oddiy aksiyalar, imtiyozli aksiyalar, pay va qo'yilmalar);
- Qo'shilgan kapital (emission daromad, ustav kapitalini shakllantirish bo'yicha kursdagi farq);
- Rezerv kapital (aktivlarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar, rezerv kapitali, beg'araz olingan mol-mulk);
- Taqsimlanmagan foyda (taqsimlanmagan foyda yoki qoplanmagan zarar).

Moliyaviy hisobotlarning izohlari tushuntirish xati ko'rinishida muntazam ravishda tartibga solinadi. Izohlardagi ma'lumotlar taqdim etilgan moliyaviy

hisobotning har bir tegishli bandi ko'rsatilgan holda berilishi kerak. Moliyaviy hisobotlar tayyorlash va buxgalteriya hisobining o'ziga xos siyosati asoslari to'g'risidagi ma'lumot moliyaviy hisobot izohlaridan oldin alohida hisob ko'rinishida berilishi kerak. Moliyaviy hisobotga beriladigan tushuntirish yozuvida eng kamida lozim bo'lgan zaruriy ma'lumotlar buxgalteriya hisobining har bir aniq andozasining «Ochib berish» bo'lmida keltiriladi.

1.2 Xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobot shakllari va ularni tuzish jarayonining uslubiyati va tahlili

Moliyaviy hisobotni tuzishdan oldin uning ko'rsatkichlari aniqligini ta'minlash maqsadida maxsus hisob-kitoblar amalga oshiriladi va bu moliyaviy hisobotni ishonchliligini oshiradi.

Shunday hisob-kitoblarning eng asosiysi xo'jalik yurituvchi subyekt mol-mulki, mablag'lari, debitorlik va kreditorlik qarzlari va boshqa buxgalteriya hisobi obyektlarini inventarizatsiya qilish hisoblanadi.

Inventarizatsiya- korxona mol-mulkini ro'yxat qilish va ma'lumotlarni buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan solishtirishdir. Inventarizatsiya buxgalteriya hisobi usullaridan biri bo'lib, uning yordamida xo'jalik mablag'larining, korxona boshqa tashkilotlar bilan olib boradigan hisob-kitob munosabatlarining haqiqiy miqdori va summasi hisob ma'lumotlariga solishtiriladi va ular o'rtasidagi farq topiladi.

Buxgalteriya balansi moliyaviy hisobot elementlarining uchtasini, ya'ni aktiv, xususiy kapital va majburiyatlarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun buxgalteriya hisobining aktivlar, xususiy kapital va majburiyatlarni hisobga oluvchi schyotlarning qoldiqlari asosida buxgalteriya balansi tuziladi. Ushbu schyotlarni buxgalteriya balansi schyotlari yoki doimiy schyotlari deb atashadi. Chunki bu schyotlar doimiy qoldiqqa ega bo'ladi va hisobot davri oxiriga yopilib ketmaydi. Buxgalteriya balansini tuzish ushbu schyotlarning dastlabki qoldig'i, hisobot davridagi aylanmasi va hisobot davri oxiriga bo'lgan qoldiq summasini to'g'ri aniqlashga bevosita bog'liqdir.

Balans aktivining “Uzoq muddatli aktivlar” bo’limini to’ldirish uchun zarur ma’lumotlarni aks ettiruvchi schyotlarning hisobot davri yakuniga bo’lgan summasini aniqlashda asosiy e’tibor ularning kirimi va chiqimi, eskirish summasini to’g’ri aniqlash hamda ularni schyotlarda aks ettirish bilan bog’liq ishlarini to’g’ri amalga oshirishni talab qiladi. Korxonalar amaliyotida uzoq muddatli aktivlarning kirimi va chiqimi bilan bog’liq bo’lgan xo’jalik muomalari ancha kam sodir bo’ladi. Ammo ularga eskirish hisoblash bilan bog’liq xo’jalik muomalari doimiy va uzluksiz amalga oshiriladi hamda ular sezilarli salmoqqa ega.

Balans aktivining “Joriy aktivlar” bo’limi moddalarini hisobga olish ancha murakkab jarayon bo’lib, buxgalteriya balansini tuzish uchun zarur ma’lumotlarni aniqlashga bir necha bosqichdan iborat hisob-kitob ishlarini amalga oshirishni talab qiladi.

Birinchi bosqichda joriy aktivlarning kirimi bilan bog’liq xo’jalik muomalarining buxgalteriya hisobi schyotlarida to’g’ri hisobga olinganligini tekshirish bilan bog’liq hisob-kitoblar, ya’ni ular kiriminig summasini aniq hisobga olish.

Ikkinchi bosqichda joriy aktivlarning chiqimi, ya’ni ichki ehtiyojlar va zarurat bo’lganda tashqi ehtiyojlar uchun sarflanishi bilan bog’liq xo’jalik muomalarining to’g’ri hisobga olinganligini tekshirish bilan bog’liq hisob-kitoblar, ya’ni ular chiqimi summasini aniqlash.

Uchinchi bosqichda ishlab chiqarish xarajatlari summasini olingan mahsulot (ish, xizmat)lar va tugallanmagan ishlab chiqarish o’rtasida taqsimlash bilan bog’liq hisob-kitoblar. Bu bosqichda hisobot davriga tegishli xarajatlar summasi to’g’ri aniqlanganligiga alohida e’tibor qaratiladi. Shuningdek, taqsimlanadigan xarajatlar 2510-“Umumishlab chiqarish xarajatlari” va 3110-“Kelgusi davr sarflari” schyotlarida hisobga olinadigan xarajatlarning xarajat ob’yektlariga to’g’ri olib borilganligiga alohida e’tibor qaratilishi lozim.

To'rtinchi bosqichda "Tayyor mahsulot" va tovarlarning kiringa olinishi va ularning sotilgan qismiga tegishli xarajatlar summasini aniqlash bilan bog'liq hisob-kitoblar amalga oshiriladi.

Beshinchi bosqichda debitorlik qarzlarning harakati bilan bog'liq xo'jalik muomalalarining aniqligini ta'minlashga oid hisob-kitoblar amalga oshiriladi.

Balans passivining "O'z mablag'larining manbalari" bo'limi uchun zarur ma'lumotlarni shakllantiruvchi schyotlar unchalik katta hajmga ega emas. Bu bo'limni to'ldirishda asosiy e'tiborni taqsimlanmagan foyda, maqsadli moliyalashtirish va tushumlar, kelgusi davr sarflari uchun zaxiralar, kelgusi davr daromadlari kabi moddalarni hisobga oluvchi schyotlarning dastlabki qoldig'i, aylanmasi va oxirgi qoldig'iga qaratish lozim. Bu bo'limdagi "Ustav kapitali" moddasi faqat korxonaning ustav kapitali summasi o'zgarganda o'zgartiriladi.

Shunday qilib, buxgalteriya balansini tuzishdan oldingi hisob ishlarini to'g'ri amalga oshirish buxgalteriya balansini tuzish jarayonini yengillashtiradi va uning muvaffaqiyatli tugallanishini ta'minlaydi. Agar oldingi ishlar bexato amalga oshirilgan bo'lsa, buxgalter uchun faqatgina balans bo'limlarini to'ldirib chiqish ishlari qoladi.

Balans tuzishga qadar joriy yil oxiriga analitik schyotlarning oborot (aylanma)lari va qoldiqlari bilan Bosh daftardagi schyotlarning oborot (aylanma)lari va qoldiqlari yana bir bor taqqoslanishi zarur.

Joriy yil oxiriga bo'lgan balans ma'lumotlari su'yektning tashkiliy qayta qurilishi, tovar-moddiy zaxiralarining qayta baholanishi va boshqa shunga o'xshashlarni hisobga olgan holda, 3-ustunda, ya'ni kirish balansining ma'lumotlari yil boshiga ko'rsatiladi.

Balans moddalarining va umumiy summasining yil boshiga va yil oxiriga ma'lumotlarining bir-biriga mos bo'lishi uchun tasdiqlangan balans moddalari yil oxiriga bo'lgan balans moddalari va guruhlangan bo'limlariga mos keltirilishi shart.

Balans aktivining "Joriy aktivlar" bo'limida xo'jalik yurituvchi su'yektning qisqa muddatli aktivlarining summasi ko'rsatiladi.

"Ishlab chiqarish zaxiralari" (120-satr) moddasida 1000-"Materiallar", 1080-"Xo'jalik anjomlari va jihozlar", 1100-"O'stirishda va boquvdagi hayvonlar" schyotlarida hisobga olinadigan xom-ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, chiqindilarning qaytimi, yoqilg'i, sotib olingan yarim fabrikatlar (yarim tayyor mahsulotlar) va butlovchi buyumlar, ehtiyot qismlar, bo'sh idishlar va boshqa moddiy qimmatliklarning haqiqiy tannarxi ko'rsatiladi.

Ishlab chiqarish zaxiralarini hisobga olish uchun foydalanilgan 1510-"Materiallarni tayyorlash va sotib olish" va 1600-"Materiallarning qiymatidagi farqlar" schyotlaridagi ko'rsatilgan summalar "Ishlab chiqarish zaxiralari" moddasida aks ettiriladi.

Tugallanmagan ishlab chiqarish (130-satr) moddasida tugallanmagan ishlab chiqarish va ishlar (xizmatlar) bo'yicha sarflangan xarajatlar, ya'ni buxgalteriya hisobi schyotlar rejasining "Tovar-moddiy zaxiralari" nomli 2-bo'limning schyotlarida hisobga olinadigan xarajatlar ko'rsatiladi. Buning uchun tugallanmagan ishlab chiqarish, O'zbekiston Respublikasida «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonun hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1999-yil 5- fevral kuni 54-son qarori bilan "Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq daromadlardan olinadigan soliqni hisoblashda e'tiborga olinadigan rejalashtirish, hisobga olish va mahsulot (ish, xizmat) tannarxini kalkulyatsiya qilish bo'yicha uslubiy tavsiyanomalarga muvofiq hisoblangan bahoda aks ettiriladi.

Balansda Ustav kapitali va ta'sischilarning ustav kapitaliga qo'shishi kerak bo'lgan haqiqiy qarzi alohida ko'rsatiladi.⁸

"Qo'shilgan kapital" (330-satr) moddasida su'yekt o'z aksiyalarini nominal qiymatdan yuqori baholarda birlamchi sotishdan oldin olingan emissiya daromadlarining miqdori ko'rsatiladi. Ushbu ma'lumotlar 8521 "Emissiya daromadlari" schyotidan olinadi.

⁸ Ibragimov A. vaboshqalar. Moliyaviy vaboshqaruv hisobi. –T.: Iqtisod-moliya, 2008.

"Zaxira kapitali" (340-satr) moddasida su'yektning Nizomiga muvofiq foyda hisobidan tashkil qilingan zaxiralar mol-mulkini qayta baholashda tashkil etilgan zaxiralar, shuningdek beg'araz olingan mulklar va hissadorlik (o'rtoqchilik) jamiyatlarini mulklarini oshiradigan boshqa (pulli mablag'lardan tashqari) tushumlarning miqdori ko'rsatiladi. Bu moddalar uchun ma'lumotlar 8531-"Aktivlarni qayta baholash", 8523-"Tekinga olingan mulklar" schyotlarining ma'lumotlariga asosan to'ldiriladi.

Choraklik hisobotning "Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)" (350-satr) moddasida sof (netto) foyda, ya'ni tayyor mahsulot, yarim-fabrikat, sotib olingan mahsulot, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarning sotilishidan aniqlangan moliyaviy natijalar, shuningdek muomalaviy daromadlar va tushumlar, 9430-"Boshqa muomalaviy sarflar" schyotidagi xarajatlar, su'yektning moliyaviy faoliyati bo'yicha daromad va xarajatlari, favquloddagi, ya'ni kutilmagan tasodifiy foyda va zararlarni aks ettiruvchi 9000, 9100, 9300, 9430, 9500, 9600, 9700 schyotlari bilan 9800 schyotda qayd qilinadigan hisobot yili mobaynida to'lanishi kerak bo'lgan soliqlar, shuningdek yakuniy hisoblanilgan foyda (daromad) solig'i va atrof-muhitni tozalash uchun mahalliy yig'implarni aks ettiruvchi 9800-"Soliq va yig'implarni to'lash uchun foydaning ishlatilishi" schyotlarining qoldiqlari o'rtasidagi farq ko'rsatiladi.

Hisobot yilining oxirida 9800-"Soliq va yig'implarni to'lash uchun foydaning ishlatilishi" schyotlarining debetida yig'ilgan miqdor 9900-"Yakuniy moliyaviy natija" schyotining debetiga olib borilib, ushbu 9800 schyot yopiladi va 1-yanvar sanasiga qoldiq qolmaydi.

Hisobot yilida 9900-"Yakuniy moliyaviy natija" schyotida qoladigan qoldiq foyda (zarar) 8710-"Hisobot davridagi taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)" schyotining (zarar) debetiga yoki (sof foyda) kreditiga olib boriladi va ushbu 9900 schyot yopiladi.

"Uzoq muddatli qarzlar" (400-satr) moddasida boshqa korxona va muassasalardan (banklardan tashqari) olingan uzoq muddatli (to'lovni uzish muddati bir yildan kam bo'lmagan) qarz miqdorlari ko'rsatiladi.

Ijara beruvchidan uzoq muddatli ijara sharti bilan olingan asosiy vositalar bo'yicha qarzlarining holati 6910-"To'lanadigan tezkor lizing" schyotlarida hisobga olinuvchi kreditorlik qarzi ijarachi tomonidan 0310-"Uzoq muddatga ijaraga olingan asosiy vositalar" schyotida hisobga olinib, uning miqdori ham shu satrda ko'rsatiladi.

"Uzoq muddatli kreditlar" (410-satr) moddasida bank bilan kelishilgan holda ulardan olingan uzoq muddatli (to'lovni uzish muddati bir yildan kam bo'lmagan) kreditlar bo'yicha qarzlar miqdori ko'rsatiladi. Ushbu moddani to'ldirish uchun ma'lumotlar shu nomdagi 7510 schyotdan olinadi.

"Qisqa muddatli qarzlar" (420-satr) moddasida 6870- "Bankdan tashqari qarzlar" schyotida hisobga olinuvchi boshqa yuridik va jismoniy shaxslardan (banklardan tashqari) olingan qisqa muddatli (to'lovni uzish muddati bir yildan ko'p bo'lmagan) qarzlar bo'yicha qarz miqdorlari ko'rsatiladi.

Bundan tashqari ushbu moddada 6820, 6830 va 6890 schyotlarning ma'lumotlari ham keltiriladi.

"Qisqa muddatli kreditlar" (430-satr) moddasida bank bilan kelishilgan holda ulardan olingan (to'lovni uzish muddati bir yildan ko'p bo'lmagan) kreditlarning miqdori ko'rsatiladi. Shu bilan birga bu moddada yakka tartibdagi uy-joy, dala-hovli qurish, boshqa maqsadlar uchun xodimlarga berilgan bank ssudalari, shuningdek savdo korxonalariga ular tomonidan xodimlarga kreditga sotilgan tovarlar qiymatini qoplash bo'yicha olingan qarzlarining miqdori ham ko'rsatiladi. Ma'lumotlar 6810-"Bankning qisqa muddatli kreditlari" schyotidan olinadi.

"Xaridor va buyurtmachilardan (schyotlarga kelib tushgan) olingan bo'naklar" (440-satr) moddasida mahsulotlar yetkazib berish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish uchun 6310- "Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo'naklar" schyotida hisobga olinuvchi xaridor va buyurtmachilardan keyingi hisoblashishlar bo'yicha olingan bo'naklarning miqdori ko'rsatiladi.

"Mol yetkazib beruvchilarga bo'lgan qarzlار" (450-satr) moddasida kirim qilingan moddiy qimmatlik, bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmatlar uchun mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga, shuningdek fakturalanmagan TMZ uchun mol yetkazib beruvchilarga bo'lgan qarzlarning miqdori aks ettiriladi. Bundan tashqari, bu yerda 6010, 7010-"Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga to'langan schyotlar" 6020, 7020-berilgan vasiqalar schyotida hisobga olingan mol yetkazib berish, ishlarni bajarish va xizmatlar bilan ta'minlash uchun su'yekt tomonidan berilgan vasiqalar bo'yicha qarzlarning miqdori ham ko'rsatiladi.

"Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlار" (460-satr) moddasida su'yektning byudjetga bo'lgan to'lovlarining barcha turlari bo'yicha, shu bilan birga o'zining xodimlaridan ushlanadigan daromad solig'i bo'yicha qarzlار 6410-"Byudjetga to'lov bo'yicha qarzlار" schyotida ko'rsatiladigan summalar aks ettiriladi.

"Mehnatga xaq to'lash bo'yicha qarzlار" (470-satr) moddasida hisoblangan, lekin hali to'lanmagan mehnat haqining miqdorlari 6710-"Mehnat haqi yuzasidan xodimlar bilan hisoblashishlar" va 6720-"Deponentlangan mehnat haqi" schyotlari bo'yicha qoldiq summolari ko'rsatiladi.

Balans hisoboti ma'lumotlari su'yektning tashkiliy qayta qurilishi, tovar-moddiy zaxiralarining qayta baholanishi va boshqa shunga o'xshashlarni hisobga olgan holda, 3-ustunda, ya'ni kirish balansining ma'lumotlari yil boshiga ko'rsatiladi.

Balans moddalarining va umumiy summasining yil boshiga va yil oxiriga ma'lumotlarining bir-biriga mos bo'lishi uchun tasdiqlangan balans moddalari yil oxiriga bo'lgan balans moddalari va guruhlangan bo'limlariga mos keltirilishi shart.⁹

Respublikamizda korxona moliyaviy natijasini aniqlashning uslubiyati ishlab chiqilgan bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 15- fevraldagi 54-son Qarori (yangi tahriri 2003 yilda 444-sonli qaror bilan tasdiqlangan) bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi

⁹ N.Yu.Jo'rayev. Moliyaviy hisobot. O'quv qo'llanma. TDIU. T.: 2007.

to'g'risidagi Nizom»ga muvofiq xo'jalik yurituvchi su'yekt faoliyatining moliyaviy natijalari foydaning quyidagi ko'rsatkichlari bilan tasniflanadi:

➤ mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda, bu sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o'rtasidagi tavofut sifatida aniqlanadi:

$$\text{YaF} = \text{SST} - \text{MT}$$

bunda, YaF - yalpi foyda;

SST - sotishdan olingan sof tushum;

MT - sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi;

➤ asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda, bu mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o'rtasidagi tavofut va plus asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa daromadlar yoki boshqa zararlar sifatida aniqlanadi:

$$\text{AFF} = \text{YaF} - \text{DX} + \text{BD} - \text{BZ}$$

bunda,

AFF – asosiy faoliyatdan olingan foyda;

DX – davr xarajatlari;

BD - asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar;

BZ – asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa zararlar;

➤ xo'jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zararlar), bu asosiy faoliyatdan olingan foyda summasi plus moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan daromadlar va minus zararlar sifatida hisoblab chiqiladi:



$$UFF = AFF + MD - MX$$

bunda,

UFF - umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda;

MD - moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar;

MX - moliyaviy faoliyat xarajatlari;

➤ soliq to'lagungacha olingan foyda, u umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda plus favqulodda (ko'zda tutilmagan) vaziyatlarda ko'rilgan foyda va minus zarar sifatida aniqlanadi:



bunda,

STF - soliq to'lagungacha olingan foyda;

FF - favqulodda vaziyatlardan olingan foyda;

FZ - favqulodda vaziyatlardan ko'rilgan zarar;

➤ yilning sof foydasi, u soliq to'langandan keyin xo'jalik yurituvchi su'yekt ixtiyorida qoladi, o'zida daromad (foyda)dan, to'lanadigan soliqni va minus qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliqlar va to'lovlarni chiqarib tashlagan holda soliqlar to'langunga qadar olingan foydani ifodalaydi:



bunda,

SF – sof foyda;

DS – daromad (foyda)dan to'lanadigan soliq;

BS – boshqa soliqlar va to'lovlar.

Respublikamizdagi barcha korxonalar mulkchilik shakllari va qaysi tarmoqqa tegishliligidan qa'tiy nazar moliyaviy natijalarni aniqlashda ushbu tartib qo'llaniladi.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tuzishdan oldin buxgalteriya hisobining schyotlar rejasidagi daromadlar, xarajatlar, foyda va zararlarni hisobga oluvchi schyotlar yopilishi lozim.

Daromad schyotlari asosan ikki guruhga bo'linadi. Birinchisi 9000 "Asosiy faoliyatning daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar" va ikkinchisi 9500 "Moliyaviy faoliyat daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar". Ushbu schyotlarda ochiladigan subschyotlar har bir korxonaning ishchi schyotlar rejasida aniq belgilanishi lozim. Daromadlarni hisobga oluvchi schyotlarni yopish uchun quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari tuziladi.

Debet 9000 "Asosiy faoliyatning daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar"

Debet 9500 "Moliyaviy faoliyat daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar"

Kredit 9900 "Yakuniy moliyaviy natijalarni hisobga oluvchi schyotlar"

Ammo korxonalar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda daromad schyotlarini yopish ikki bosqichda amalga oshirilishi mumkin. Birinchi bosqichda daromad schyotlari tarkibidagi 9040 "Sotilgan tovarlarning qaytishi" va 9050 "Xaridorlar va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar" schyotlar yopiladi, ya'ni ushbu schyotlarning debetidagi summa 9000 schyotining debetiga olib boriladi hamda daromad summasini kamaytiradi. Shundan so'nggina ikkinchi bosqichga o'tiladi va yuqorida keltirilgan buxgalteriya o'tkazmasi orqali olingan daromad summasi 9900 schyotga o'tkaziladi. Asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruhga asosiy faoliyatning boshqa muomalalaridan olingan foyda summasini kiritish mumkin. Ikkinchi guruhga esa asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini olib borish mumkin. Asosiy faoliyatning boshqa muomalalaridan olingan foyda summasini aniqlash uchun dastlab 9200 "Asosiy vositalar va boshqa aktivlarning chiqib ketishini hisobga oluvchi schyotlar"da olingan foyda summasining qoldig'i aniqlanadi. Shundang

so'ng ushbu qoldiq summa 9300 "Asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar"ning foydani hisobga oluvchi schyotlariga o'tkaziladi.

Asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini hisobga oluvchi schyotlarni yopish uchun quyidagi buxgalteriya o'ztkazmasi tuziladi:

Debet 9300 "Asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar"

Kredit 9900 "Yakuniy moliyaviy natijalarni hisobga oluvchi schyotlar"

Korxonalar foydasi tarkibida favqulodda foydalar summasi ham hisobga olinadi va u 9710 "Favqulodda foydalar" schyotida hisobga olinadi. Ushbu schyotni yopish quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi bilan rasmiylashtiriladi:

Debet 9710 "Favqulodda foydalar"

Kredit 9900 "Yakuniy moliyaviy natijalarni hisobga oluvchi schyotlar"

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda aks ettiriladigan daromadlar va foyda summalari yuqoridagi hisob ishlarini bajarish orqali aniqlanadi.

Korxonalar faoliyatida sarflanadigan xarajatlarni moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotga kiritish uchun ularni hisobga oluvchi schyotlarni yopish bilan bog'liq bo'lgan hisob ishlari amalga oshiriladi. Buning uchun quyidagi schyotlarni yopish talab qilinadi:

9100 "Sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)larning tannarxini hisobga oluvchi schyotlar";

9400 "Davr xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlar";

9600 "Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlar";

9720 "Favqulodda zararlar" schyoti;

9800 "Soliqlar va yig'imlarni to'lash uchun foydaning ishlatilishini hisobga oluvchi schyotlar".

Xarajat schyotlarini yopish uchun 9910 "Yakuniy moliyaviy natija" schyoti debetlanadi va xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar kreditlanadi. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tuzishdan oldin yana bir bor daromad va xarajat

schyotlaridagi summalar tekshirib chiqiladi va shundan so'ng hisobotni tuzishga kirishiladi.¹⁰

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tuzish tartibi.

Moliyaviy natijalarni aniqlash bilan bog'liq barcha hisob-kitoblar amalga oshirilgandan so'ng buxgalteriya hisobi schyotlari ma'lumotlari asosida hisobotni tuzishga kirishiladi.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning 010-satrda mahsulot, tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotishdan olingan tushum ko'rsatiladi. Bu satrda soliqlar (qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i) hamda qaytarilgan tovarlar va tayyor mahsulotning qiymati, xaridorning sotish narxlaridan chegirmalari qo'rsatilmaydi. Asosiy faoliyati mol-mulkni ijaraga berish hisoblangan korxonalar ushbu satrda joriy hisobot davriga tegishli bo'lgan daromad summasini ko'rsatadi. Shuningdek, vositachi korxonalar ham xuddi shu satrda komission haqlar summasini aks ettiradi.

“Sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)larning tannarxi” moddasi bo'yicha (020-satr) sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar tannarxining summasi ko'rsatiladi. Ushbu satrda savdo korxonalari sotilgan tovarlarning xarid qiymatini aks ettiradi.

“Mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotilishidan olingan yalpi foyda (zarar)” (030-satr) summasi sof tushum bilan sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) tannarxi o'rtasidagi farq (010-satr-020-satr) summadan iborat bo'ladi.

“Davr xarajatlari, jami” moddasida (040-satr) “Realizatsiya xarajatlari” (050-satr), “Ma'muriy xarajatlar” (060-satr), “Boshqa operatsion xarajatlar” (070-satr), “Kelgusi soliq solinadigan bazadan chiqariladigan hisobot davri xarajatlari” (080-satr) o'z ichiga oladi va shu nomdagi schyotlar ma'lumotlari asosida tuziladi.

“Asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar” moddasi (090-satr) asosiy faoliyatning boshqa daromadlari: asosiy vositalar va aktivlarning chiqib ketishidan foyda, undirilgan jarimalar, penya va neustoykalar, o'tgan yillar foydasi, qisqa muddatli ijaradan daromadlar, kreditorlik va debitorlik qarzni hisobdan

¹⁰ N.Yu.Jo'rayev. Moliyaviy hisobot. O'quv qo'llanma. TDIU. T.: 2007.

chiqarishdan daromadlar, hizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarning daromadlari, tekin moliyaviy yordam va boshqa operatsion daromadlar ko'rsatiladi.

“Asosiy faoliyatdan foyda (zarar)” moddasida (100-satr) mahsulot (tovar, ishlar va xizmatlar) sotilishidan olingan yalpi foyda (zara)dan (030-satr) davr xarajatlari summasini (040-satr) ayirish hamda asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar summasini (090-satr) qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.

“Moliyaviy faoliyatdan daromadlar jami” moddasida (110-satr) “Dividendlar ko'rinishida daromadlar” (120-satr), “Foizlar ko'rinishidagi daromadlar” (130-satr), “Uzoq muddatli ijaradan daromadlar (lizing)” (140-satr), “Valuta kurslaridagi farqlardan daromadlar” (150-satr) va “Moliyaviy faoliyatdan boshqa daromadlar” (160-satr) daromadlarni o'z ichiga oladi.

“Moliyaviy faoliyatdan xarajatlar jami” moddasida (170-satr) “Foizlar ko'rinishida xarajatlar” (180-satr), “Uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing) bo'yicha foizlar ko'rinishidagi xarajatlar” (190-satr), “Valuta kurslaridagi farqlardan xarajatlar” (200-satr) va “Moliyaviy faoliyatdan boshqa xarajatlar” (210-satr) larni o'z ichiga oladi.

“Umumxo'jalik faoliyatidan foyda (zarar)” moddasi bo'yicha (220-satr) korxonaning umumxo'jalik faoliyatiga doir asosiy faoliyatdan foyda (zarar) summasiga (100-satr) moliyaviy faoliyatdan daromadlar summasini (110-satr) qo'shish va moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar summasini (170-satr) ayirish yo'li bilan aniqlangan moliyaviy natijalar ko'rsatiladi.

“Favqulodda foyda va zararlar” moddasi bo'yicha (230-satr) favqulodda hodisalar natijalari ko'rsatiladi, “Daromadlar (foyda)” ustuni 9710-“Favqulodda foydalar” hisobvarag'ining ma'lumotlari, “Xarajatlar (zararlar)” ustuni esa 9720-“Favqulodda zararlar” hisobvarag'ining ma'lumotlari bo'yicha to'ldiriladi.

“Daromad (foyda) solig'ini to'lashga qadar foyda (zarar)” moddasi bo'yicha (240-satr) +/-belgisini hisobga olgan holda 220 va 230-satrlarni qo'shish natijalari aks ettiriladi. Ushbu satr natijasi daromad (foyda) solig'ini hisoblashda asos bo'ladi.

“Daromad (foyda) solig’i” moddasi bo’yicha (250-satr) hisobot davri boshidan hisoblangan 9810-“Daromad (foyda) solig’i bo’yicha xarajatlar” hisobvarag’idagi summalar ko’rsatiladi.

“Foydadan boshqa soliqlar va yig’imlar” moddasi bo’yicha (260-satr) yil boshidan hisoblangan qonun hujjatlariga muvofiq korxona o’z foydasidan to’laydigan soliqlar va yig’imlar summasi aks ettiriladi.

Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq soliq solishning maxsus tartibi nazarda tutilgan korxonalar 260-satr bo’yicha hisoblab yozilgan yagona soliq, yalpi daromaddan soliq, yagona yer solig’i summasini aks ettiradi.

“Hisobot davrining sof foydasi (zarari)” moddasi bo’yicha (270-satr) hisobot davrining pirovard moliyaviy natijasi ko’rsatiladi, u 240-250-260-satrlar ayirmasi sifatida belgilangan.

“Budjetga to’lovlar bo’yicha ma’lumot”da (280-430 satrlar) korxonalar tomonidan soliq qonunchiligiga muvofiq hisoblab yozilgan va to’lanadigan soldiqdar turlari bo’yicha budjetga to’lovlar ko’rsatiladi. Mazkur ma’lumotnomada 440-satr bo’yicha korxonalar tomonidan hisoblab yozilgan va to’lanadigan budjetga to’lovlarning yakuniy summasi ko’rsatiladi.¹¹

Pul oqimlari to’g’risidagi hisobotning «Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan kelib tushgan pul mablag’lari» (010-satr) moddasida yuklab yuborilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar uchun hisobot davrida korxonaning bankdagi hisob-kitob schyotiga va kassasiga kelib tushgan pul «material, tovar va xizmatlar uchun mol yetkazib beruvchilarga to’langan pul mablag’lari» (020-satr) moddasida materiallar, tovarlar, ish va xizmatlar uchun mol yetkazib beruvchilarga to’langan pul mablag’lari summasi ko’rsatiladi.

«Xodimlarga va ular nomidan to’langan pul mablag’lari» (030-satr) moddasida xodimlarga to’langan mehnat haqi, mukofotlar, maqsadli davlat fondlariga to’lanmalar, byudjetga to’langan daromad solig’i, kasaba uyushmasiga ajratmalar, aliment to’lovlari, turar joy fondiga to’lovlar, xodimlarga berilgan bank

¹¹ 3-sonli “Moliyaviy natijalar to’g’risidagi hisobot” nomli Buxgalteriya hisobi milliy standarti

kreditlari bo'yicha to'lovlar va shunga o'xshash kassadan va bankdagi schyotlardan to'lanadigan boshqa pul mablag'lari ko'rsatiladi.

«Operatsion faoliyatning boshqa pul tushumlari va to'lovlari» (040-satr) moddasida olingan royalti, turli rag'batlantirishlar va boshqa daromadlar, savdo korxonalari bilan tuziladigan bitimlar bo'yicha olingan komission yig'imlar aks ettiriladi.

«Jami operatsion faoliyatning sof pul kirimi/chiqimi» (050-satr) moddasida plus, minus, alomatlariga qarab yuqoridagi satrlarning yig'indisi aks ettiriladi.

Asosiy vositalarni xarid qilish va sotish moddasi bo'yicha (060-satr) korxonalar «Chiqim» ustunida mahsulot yetkazib beruvchilarga to'langan asosiy vositalarni xarid qilganlik uchun pul mablag'lari summasini, «Kirim» ustunida esa-asosiy vositalarni sotishdan kelib tushgan mablag'lar summasini ko'rsatadilar.

Nomoddiy aktivlarni xarid qilish va sotish moddasi bo'yicha (070-satr) korxonalar «Chiqim» ustunida nomoddiy aktivlarni xarid qilganlik uchun mol yetkazib beruvchiga to'langan pul mablag'lari summasini, «Kirim» ustunida esa-nomoddiy aktivlarni sotishdan kelib tushgan pul mablag'lari summasi ko'rsatiladi.

Uzoq muddatli va qisqa muddatli investitsiyalarni xarid qilish va sotish moddasi bo'yicha (080-satr) «Chiqim» ustunida qimmatli qog'ozlar va investitsiyalar boshqa dastaklarini xarid qilish uchun to'langan foizlar ko'rsatiladi, «Kirim» ustunida esa qimmatli qog'ozlar va investitsiyalar boshqa dastaklarini sotish natijasida kelib tushgan pul mablag'lari summasi ko'rsatiladi.

Investitsiya faoliyatining boshqa pul tushumlari va to'lovlari moddasining (090-satr) «Chiqim» ustunida boshqa investitsion faoliyat uchun to'langan pul mablag'lari summasi, «kirim» ustunida esa olingan pul mablag'lari summasi aks ettiriladi.

«Jami: investitsiya faoliyatiga oid sof pul oqimi/chiqimi» moddasi bo'yicha (100-satr), «kirim» ustunida «+» va «chiqim» ustuni bo'yicha «-» belgisining ta'sirini hisobga olgan holda (060,070,080,090-satrlarni) jamlash natijasi ko'rsatiladi.

«Olingan va to'langan foizlar» (110-satr) moddasining «Kirim» xonasida olingan, «Chiqim» xonasida to'langan foizlar summasi aks ettiriladi.

«Olingan va to'langan dividendlar» moddasi bo'yicha (120-satr) «kirim» ustunida olingan dividendlar summalari, «chiqim» ustunida esa to'langan dividendlar summalari aks ettiriladi.

Aksiyalarni chiqarishdan yoki xususiy kapital bilan bog'liq bo'lgan boshqa instrumentlardan kelgan pul tushumlari (130-satr) moddasida xususiy kapital bilan bog'liq hisobot davrida chiqarilgan (sotilgan) aksiyalar yoki boshqa instrumentlar bo'yicha aksionerlardan kelib tushgan pul mablag'lari summasi aks ettiriladi.

«Xususiy aksiyalar sotib olingandagi pul to'lovlari» (140-satr) moddasida keyinchalik tarqatish yoki bekor qilish uchun korxona qaytarib olgan xususiy aksiya egalari to'langan pul mablag'lari summasi ko'rsatiladi.

«Uzoq va qisqa muddatli kredit va qarzarlar bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari» (150-satr.) moddasining «Kirim» xonasida hisobot davrida tushgan kredit va qarzarlar, «Chiqim» xonasida to'langan kreditlar va qarzarlar ko'rsatiladi.

«Uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing) bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari» (160-satr.) moddasining «Chiqim» xonasida ijara (lizing)ga beruvchiga to'langan summa, «Kirim» xonasida – ijara (lizing)ga oluvchidan tushgan pul mablag'lari summasi ko'rsatiladi.

«Moliyaviy faoliyatning boshqa pul tushumlari va to'lovlari» (170-satr.) moddasining «Chiqim» xonasida boshqa moliyaviy faoliyat bo'yicha to'langan, «Kirim» xonasida olingan pul mablag'lari ko'rsatiladi.

«Jami: moliyaviy faoliyatning sof pul kirimi/chiqimi» (180-satr.) moddasida 110, 120, 130, 140, 150, 160, 170- satrlarning plus summalarini jamlab «Kirim» xonasida, minus summalarini jamlab «Chiqim» xonasida aks ettiriladi.

«To'langan daromad (foyda) solig'i» (190-satr.) moddasida to'langan daromad (foyda) solig'i summasi aks ettiriladi.

«To'langan boshqa soliqlar» (200-satr.) moddasida daromad (foyda) solig'idan boshqa to'langan soliqlar, boj va ularga tenglashtirilgan yig'im va ajratmalar summasi ko'rsatiladi.

«Jami to'langan soliqlar» (210-satr.) moddasida 190 va 200 satrlar summasi aks ettiriladi.

«Jami moliyaviy – xo'jalik faoliyatining sof pul kirimi / chiqimi» (220-satr.) moddasida 050, 100, 180, 210-satrlarning plus summalarini jamlab «Kirim» xonasida, minus summalarini jamlab «Chiqim» xonasida ko'rsatiladi.

«Yil boshidagi pul mablag'lari» (230-satr.) moddasida korxona balansining 320-satr 3-xonasida ko'rsatilgan pul mablag'larini xisobga oluvchi schyotlarnin (5000, 5100, 5200, 5500, 5600,5700) qoldiq summolari aks ettiriladi.

«Yil oxiridagi pul mablag'lari» (240-satr.) moddasida korxona balansining 320-satr 4-xonasida ko'rsatilgan pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlarning (5000, 5100, 5200, 5500, 5600, 5700) qoldiq summolari aks ettiriladi.

«Chet el valutasidagi pul mablag'larining harakati to'g'risida ma'lumot» bo'limida hisobot davrida korxonaning valuta mablag'larini harakati ko'rsatiladi.

Valuta mablag'lari muomalalari sodir bo'lgan paytda, valuta mablag'larining qoldiqlari esa hisobot davrining oxirgi sanasiga O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki belgilagan kurs bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy valutasida aks ettiriladi.

«Yil boshiga qoldiq» (250-satr) moddasida korxonaning valuta schyoti va kassasida hisobot davri boshiga qolgan valuta mablag'lari summolari ko'rsatiladi.

«Jami valuta mablag'larining tushumi» (260-satr) moddasida 261, 262, 263, 264-satrlarda ko'rsatilgan valuta mablag'larining hisobot davridagi umumiy tushumi ko'rsatiladi.

«Jami sarflangan valuta mablag'lari» (270-satr) moddasida 271 dan 273-gacha satrlarda ko'rsatilgan korxona tomonidan turli maqsadlarga sarflangan valuta mablag'larining umumiy summasi ko'rsatiladi.

«Yil oxiridagi qoldiq» (280-satr) moddasida 250, 260, 270 satrlarning ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadigan hisobot yil oxiriga qolgan korxonaning valuta schyotlarida va kassasida qolgan valuta mablag'i summasi ko'rsatiladi.¹²

¹²9-sonli "Pul oqimi to'g'risidagi hisobot"nomli Buxgalteriya hisobi milliy standarti

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda ustav kapitalining yil boshiga qoldig'i (010-satr). Ushbu ko'rsatkich buxgalteriya hisobining 8300 «Ustav kapitali (fondi)ning hisobvaraqlari»ning joriy yilning 1-yanvariga bo'lgan kredit qoldig'i ma'lumotlari asosida aniqlanadi.

Navbatdagi ko'rsatkich xususiy kapital shakllanishining boshqa manbalari (100-satr)da korxona ustav kapitali qiymatining o'zgarishi natijasida boshqa manbalardan qo'yilgan mablag'lar summasini ko'rsatadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, ustav kapitalining yil oxiridagi qoldig'i (110-satr), yil boshidagi qoldiq summasiga (010-satr) xususiy kapital shakllanishining boshqa manbalari (100-satr)ni qo'shish orqali aniqlanadi.

Xususiy kapitalning ko'payishi (+), yoki kamayishi (-) (120-satr)ning ustav kapitalining ta'siridagi o'zgarishini ko'rsatadi. Bunda ustav kapitali summasining ko'payishi yoki kamayishi hisobiga xususiy kapital qanchaga o'sgan yoki kamayganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni olish mumkin.

Aksiyadorlik jamiyatlari qaroriga muvofiq qimmatli qog'ozlarni emissiya qiladi, ya'ni chiqaradi va ularni aksionerlar o'rtasida joylashtiradi. Aksiyalarni nominal qiymatidan yuqori qiymatda sotish natijasida vujudga kelgan qiymatni 020-satrda, ya'ni qimmatli qog'ozlar emissiyasi ko'rsatkichida aks ettiriladi. Ushbu ko'rsatkichni to'ldirishdan oldin uning to'g'riligiga ishonch hosil qilish lozim. Buning uchun 8410-«Emissiya daromadi», 4610-«Ta'sischilarni ustav kapitaliga badallar bo'yicha qarzlari» va 5110-«Hisob-kitob» schyoti ma'lumotlari o'zaro tekshirilishi lozim. Ularning to'g'riligiga ishonch hosil qilingandan so'ng 8410-«Emissiya daromadi» schyotining kredit qoldig'idagi summa «Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot»ning «Qimmatli qog'ozlar emissiyasi» ko'rsatkichining «Qo'shilgan kapital» ustuni (020-satr)ga yozib qo'yiladi.

Ustav kapitalini shakllantirishda paydo bo'lgan valuta kursi farqlari (040-satrda) buxgalteriya hisobida 8420-«Ustav kapitalini shakllantirish chog'ida valuta kurslaridagi farq» hisobvarag'ida aks ettiriladigan, ta'sis hujjatlarini ro'yxatdan o'tkazish sanasida va mablag'lar ustav sarmoyasiga haqiqatda kiritilgan sanada Markaziy bank kurslari o'rtasida yuzaga keladigan, korxonaning ustav sarmoyasini

shakllantirish chog'ida hisobot davri uchun kurslardagi farq aks ettiriladi. Ushbu ko'rsatkichni to'ldirishdan oldin buxgalteriya hisobi schyotlari ma'lumotlari, shuningdek, ustav kapitalining ro'yxatdan o'tgan va to'langan vaqtdagi chet el valutasining kursi hamda ular o'rtasidagi farq summalar tekshirilishi lozim. Shundan so'ng ushbu ma'lumotlar hisobotning «qo'shimcha kapital» ustuniga yozib qo'yiladi.

Hisobotning «Xususiy kapital shakllanishining boshqa manbalari» ko'rsatkichi (100-satr)da qo'shimcha kapitalni shakllantirish uchun yo'naltirilgan boshqa mablag'lar ko'rsatiladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, «Yil oxiridagi qoldiq (110-satr) va xususiy kapitalning ko'payishi (+) yoki kamayishi(-)» (120-satr) ko'rsatkichlarini umumiy tartibda aniqlanadi.

«Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash» moddasi bo'yicha (030-satr) hisobot yilining birinchi kuni holati bo'yicha har yili qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'tkaziladigan asosiy fondlarni qayta baholashdan tashqari, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va boshqa uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash summasi aks ettiriladi.

Ushbu ko'rsatkichni to'ldirish uchun yilning berilgan kuniga o'tkazilgan uzoq muddatli aktivlarni qayta baholashning hisob-kitobi va ularning buxgalteriya hisobi aktlarida aks ettirishlari lozim. Buning uchun 8510-«Mulknı qayta baholash bo'yicha tuzatishlar» va uzoq muddatli aktivlarni hisobga oluvchi schyotlar (0100, 0400 va b.q.)ning o'zaro bog'lanishi tekshiriladi.

Rezerv kapitaliga ajratmalar moddasi bo'yicha (050-satr) ta'sis hujjatlariga ko'ra qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisobot yili uchun rezerv kapitaliga ajratmalar summasi aks ettiriladi. Ushbu rezerv summasi korxona ta'sischilarining kelishuviga muvofiq qabul qilingan qarorda alohida ta'kidlanadi. Foyda hisobidan ajratiladi. Ushbu ma'lumotlarni hisobotga kiritishdan oldin ushbu qaror ma'lumotlari bilan 8710- «Joriy yilning taqsimlanmagan foydasi» schyotining hamda 8520-«Rezerv kapitali» schyoti ma'lumotlari o'zaro taqqoslanadi. Shundan keyin ushbu ma'lumotlar hisobotga kiritiladi.

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda taqsimlanmagan foyda to'g'risidagi ma'lumotlarning aks ettirish jarayonida eng avvalo uning haqiqiylikini tekshirish lozim. Buning uchun amalga oshiriladigan hisob ishlarini bir necha bosqichda amalga oshirish lozim. Birinchi bosqichda hisobot davrining taqsimlanmagan foyda summasining to'g'riligi tekshirilishi lozim. Buning uchun 8710-«Hisobot davridagi taqsimlanmagan foyda» schyotining aylanmasining to'g'riligi va uning ma'lumotlarini «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot»ning hisobot davrining sof foydasi (zarari) (270-satr) bilan hamda 9910-«Yakuniy moliyaviy natija» schyoti ma'lumotlari bilan taqqoslash lozim. Ikkinchi bosqichda esa «Buxgalteriya balansi»ning «Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)» moddasi bilan bog'lanishi tekshirilishi zarur. Buning uchun 8710-«Hisobot davridagi taqsimlanmagan foyda» schyoti kredit qoldig'i bilan 8720-«Jamg'arilgan foyda (qoplanmagan zarar)» schyotining qoldig'i summalari yig'indisining buxgalteriya balansining 450-satridagi «Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)» summasi bilan taqqoslanadi. Ushbu summalarning tenglamasi ma'lumotlarning to'g'riligini anglatadi. Shundan so'ng 8710-schyot ma'lumotlari 060-«Joriy yilning taqsimlanmagan foydasi (zarari)» satriga yoziladi.¹³

1-BOB BO'YICHA XULOSA

1-bobga xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning iqtisodiy hamda moliyaviy salohiyati va holati to'g'risidagi ma'lumotlar yetakchi bo'lib, foydalanuvchilarning turli toifalari: ta'sischi, aktsiyador, kreditor, investor, mol etkazib beruvchilar va boshqalar manfaatlarini qamrab oladi. Bunda foydalanuvchilarning har bir toifasi korxona moliyaviy holatini baholashda o'z manfaatlaridan kelib chiqadi va o'z mezonlariga amal qiladi. Bugungi kunda tahlilning asosi bo'lgan moliyaviy hisobot korxonalar faoliyatini boshqarishda zarur bo'lgan kerakli ma'lumotlarni etkazib berish, to'g'ri va mukammal boshqaruv qarorlarini qabul qilishda asosiy manba bo'lib hisoblanadi.

¹³F.G'ulomova "Buxgalteriya hisobini mustaqil o'rganish uchun qo'llanma" T: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" 2009.

Jamiyatda moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan juda keng miqyosda foydalaniladi. Ushbu foydalanuvchilar o'z navbatida uchta guruhga bo'linadi:

- korxona boshqaruvchilari;
- moliyaviy manfaatdor shaxslar;
- moliyaviy manfaatdor bo'lmagan shaxslar. Demak, 1-guruh ichki foydalanuvchiga va 2, 3-guruhlar tashqi foydalanuvchiga bo'linadi.

Tashqi foydalanuvchilarniasosan quyidagi ko'rsatkichlar qiziqtiradi:

1. Korxona aktivlari va passivlarining tuzilishi;
2. Korxonaning likvidligi;
3. O'zining va jalb qilingan kapitalning hissasi;
4. Aktivlarning aylanish tezligi;
5. Barcha aktivlar va realizatsiya qilingan mahsulotning rentabelligi;
6. Korxona ixtiyorida qoladigan sof foyda;
7. To'langan dividendlarning hissasi (agar aktsionerlik kompaniyasi bo'lsa).

Chunki axborotdan foydalanuvchilar o'z manfaatini ko'zlagan holda u yoki bu axborot manbalaridan foydalanadilar. Masalan, soliq organlari soliqqa tortish uchun moliyaviy hisobot, deklaratsiya va tekshiruv ma'lumotlaridan foydalanadilar, xaridor ham mahsulot narxining asoslanish darajasi haqidagi ma'lumotni moliyaviy hisobotdan oladilar.

Hisobot orqali sifat, miqdor va qiymat ko'rsatkichlari yordamida subyektning faoliyatiga tavsif beriladi. Tasdiqlangan shakllardagi buxgalteriya hisobotida sotilgan mahsulot, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlardan olingan daromadlar, ishlab chiqarish xarajati, subyektning mulki, moliyaviy holati va xo'jalik faoliyatining natijalari bo'yicha ma'lumotlar ma'lum tizimda aks ettiriladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz mumkinki, foydalanuvchilar ommasining hamda ma'lumotlar qamrovining kengligi moliyaviy hisobotning ahamiyati bozor iqtisodiyoti sharoitida naqadar yuksak ekanligini ko'rsatib beradi.

2-BOB. XO`JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MOLIYAVIY HISOBOT SHAKLLARI VA ULARNI TUZISH AMALIYOTI

2.1 Xo`jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobot shakllari va ularni tuzish tartibi hamda amaliyotdagi holati

Buxgalteriya hisobini yuritishning asosiy maqsadi ma'lum bir xo'jalik sub'ekting barcha xo'jalik muomalalarini rasmiy ravishda hisobda aks ettirish va ma'lum bir davrlarda foydalanuvchilarga zaruriy ma'lumotlarni berish hisoblanadi.

Moliyaviy hisobot alohida mustaqil korxona bo'lishi yoki xo'jalik yurituvchi korxonalarining uyushgan guruhiga kirishidan qat'iy nazar, bajaradigan va sub'ektga ta'sir ko'rsatuvchi moliyaviy voqealarni va muomalalarni ko'rsatish usuli hisoblanadi.

Moliyaviy hisobotlarning maqsadi korxonaning moliyaviy ahvolidan, uning faoliyatidan va uning pul mablag'lari harakati bo'yicha ma'lumot berishdan iborat bo'lib, u foydalanuvchilarning keng guruhiga iqtisodiy qarorlar qabul qilishlari uchun zarurdir.

Moliyaviy hisobot xo'jalik muomalalari xususiyati va mohiyati jihatidan ularni guruhlarga tuzilmaviy birlashtirish natijasi hisoblanadi. Umumlashtirish va tasnif qilish jarayonining yakuniy bosqichi bu turkumlarga ajratilgan juda qisqa axborotni taqdim etishdir, chunki moliyaviy hisobotlar band sifatida va izohlarda berilgan bo'ladi. Moliyaviy hisobotlar, shuningdek, korxona imkoniyatlarini rahbariyat tomonidan boshqarilishini amalga oshirish natijalarini ham ko'rsatadi.

«Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonunning 16-moddasiga binoan moliyaviy hisobotda quyidagi axborot bo'lishi kerak:

- investitsiya qarorlari va kreditlar berish to'g'risida qarorlar qabul qilishda kerak bo'ladigan axborot;
- sub'ektning bo'lajak pul oqimlarini baholashda foydali axborot;
- sub'ektga berilgan resurslar, majburiyatlar va ulardagi o'zgarishlar to'g'risida axborot.

Yuqorida aytib o'tilgan axborotlardan tashqari, moliyaviy hisobotda batafsilroq ma'lumotlar ham beriladi. 1-BHMAga asosan, moliyaviy hisobotlar foydalanuvchilarga pul mablag'lari harakati oqimini taxmin qilishga yordam beradigan, korxonaning mulki va ixtiyoridagi resurslari to'g'risida quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi lozim:

- korxonaning nazorati ostida bo'lgan aktivlar haqida;
- korxonaning passivlari haqida;
- korxonaning taqsimlanmagan daromadi, korxonaning bir davrdan boshqa davrga o'tishdagi iqtisodiy imkoniyatlari va majburiyatlaridagi o'zgarishlar haqida;
- pul mablag'larining harakati haqida.

Ushbu ma'lumot moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar uchun korxonaning dividendlarni va foizlarni to'lash, shuningdek, majburiyatlari bo'yicha muddati kelgan to'lovlarni to'lash imkoniyatini baholashda foydali bo'ladi.

Moliyaviy hisobotning shakllanishi qisqa vaqtda, hisobot davri muomalalari tugagandan so'ng ro'y beradi va korxonadan professional buxgalteriya bilimlari va ko'nikmalaridan tashqari, qo'shimcha ma'lumotlar tuzish (izohlar, tushuntirishlar) ketma-ketligiga rioya qilishni talab qiladi.

Moliyaviy hisobotlar ma'lum bir hisobot davri yoki ma'lum bir hisobot sanasi bo'yicha tuziladi. Bunda buxgalteriya balansi va hisobvaraqlardagi qoldiqlar bo'yicha ma'lumotlar ma'lum bir sanaga tuziladi, moliyaviy hisobot shakllarining qolganlari esa ma'lum bir davr uchun tuziladi.

Moliyaviy hisobotning hisobot davri 1 yanvardan 31 dekabrigacha bo'lgan davr kalendar yil hisoblanadi.

Moliyaviy hisobot qonun hujjatlarida ko'rsatilgan hollarda kalendar yilidan farqli ravishda davrlar bo'yicha (oy, chorak uchun) ham taqdim etilishi mumkin.

Moliyaviy hisobotlar uchun hisobot kuni hisobot davrining oxirgi kalendar kuni hisoblanadi. Sub'ektning buxgalteriya balansi uchun hisobot kuni 31 dekabr

hisoblanadi, moliyaviy natijalar to'g'risidagi yillik hisobot uchun hisobot davri 1 yanvardan 31 dekabrigacha bo'lgan davr hisoblanadi.

Korxonaning yillik moliyaviy hisoboti mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, to'liq nusxalarda quyidagi foydalanuvchilarga hisobot yilidan keyingi yilning 15 fevraligacha bo'lgan muddatda taqdim etilishi shart:

- korxonaning mulkdori hisoblangan (davlat mulkini boshqarishga vakolati bo'lgan organlarga, qatnashchilarga, ta'sischi(lar)ga) ta'sis etish to'g'risidagi hujjatlar asosida;

- davlat soliq idoralariga;
- davlat statistika idoralariga;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa organlarga.

Moliyaviy hisobotni boshqa foydalanuvchilarga taqdim etish tartibi mustaqil ravishda korxona rahbariyati (uning mulkdorlari va ta'sischi(lar)lari) tomonidan tartibga solinadi va korxonaning hisob siyosatida ko'zda tutiladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning yillik moliyaviy hisobotlari manfaatdor sub'ektlar: banklar, birjalar, investorlar, kreditorlar va shu kabilar uchun oshkora hisoblanadi. Manfaatdor shaxslar yillik moliyaviy hisobot bilan tanishish va nusxa ko'chirish harajatlarini qoplab, uning nusxasini olish huquqiga egadirlar.

Ochiq turdagi hissadorlik jamiyatlari, sug'urta kompaniyalari, banklar, fond va tovar birjalari, investitsiya fondlari va boshqa moliya muassasalari har yili moliyaviy hisobotni undagi ma'lumotlarning to'g'riligi auditor tomonidan tasdiqlangandan so'ng hisobot tugagandan keyin 1 maydan kechiqtirmay e'lon qiladilar.

Bundan tashqari, aktsiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy hisobotlari gazetalar, jurnallar va byulletenlarda yoki qonunchilikda ko'zda tutilgan muddatlarda alohida nashrda e'lon qilinishi kerak.

Choraklik moliyaviy hisobot hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechikmasdan taqdim etiladi. Yarim yillikning moliyaviy hisoboti shu yilning 25-iyulidan kechikmasdan taqdim etilishi kerak.

Bir shaharda joylashgan korxonalar tomonidan moliyaviy hisobotni taqdim qilish muddati uni aynan taqdim qilingan kun hisoblanadi, boshqa shahardagilar uchun esa jo‘natilgan va aloqa bo‘limi muhri bilan belgilangan kun hisoblanadi.

Moliyaviy hisobotni taqdim etish kuni ish bo‘lmagan kunga to‘g‘ri kelgan paytda, taqdim etish muddati undan keyingi birinchi ish kuniga ko‘chiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ba’zi-bir xo‘jalik sub’ektlari uchun bu xo‘jalik sub’ektlari faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini, ulardagi hisob ishining murakkabligini (shu bilan birga avtomatlashtirilganlik darajasini) o‘rganib

chiqqandan keyin choraklik va yillik moliyaviy hisobotni taqdim etishning boshqa muddatlarini belgilaydi (1- son BHMA, 64-band).

Bunda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi agar xo‘jalik sub’ektida hisob ishi avtomatlashtirilmayotgan bo‘lsa va shu sababli moliyaviy hisobot yuqorida ko‘rsatilgan muddatlarda taqdim etilmayotgan bo‘lsa, u holda hisobotni taqdim etish muddatini uzaytirishni rad etishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonunining 7-moddasiga muvofiq, moliyaviy hisobotning tayyorlanishi, ishonchliligi va o‘z vaqtida topshirilishi uchun javobgarlik buxgalteriya hisobini tashkil qiluvchi xo‘jalik sub’ekti rahbarining zimmasiga yuklatiladi.

Amaliyotda ko‘pgina korxonalarning faoliyati ko‘p qirrali bo‘ladi hamda bu moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar uchun iqtisodiy qarorlar qabul qilishda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Yillik moliyaviy hisobotlar qo‘shimcha ravishda tuziladigan moliyaviy sharhni o‘z ichiga olishi kerak, chunki u korxonaning moliyaviy faoliyatini, moliyaviy ahvolini va ular duch kelgan asosiy noaniqliklarni bartaraf etadi.

Moliyaviy sharh korxona ma’muriyati tomonidan tuziladi. Bu sharh korxonaning moliyaviy ahvoli va moliyaviy faoliyatining asosiy belgisini, shuningdek, foydalanuvchi hisobot bilan tanishish jarayonida duch kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy hisobotdagi noaniqliklarni izohlab berishi va tushuntirib berishi lozim.

Qo‘shimcha ma’lumotlar: izohlar, eslatmalar va hisoblar korxona tomonidan maxsus shakllarda ham, shuningdek, ixtiyoriy ko‘rinishda ham taqdim etiladi.

Zaruriyat tug'ilganida statistik hisobotning shakllari moliyaviy hisobotga beriladigan qo'shimcha ma'lumotlar orqali zaruriy foydalanuvchilarga taqdim etilishi mumkin. Bundan tashqari, korxona rahbariyati qo'shimcha ma'lumotlar sifatida sub'ekt doirasida ma'lumotlarni taqdim etish shakli hisoblanuvchi jadvallar va ma'lumotnomalarni taqdim etishi mumkin.

Moliyaviy hisobotlar quyidagi asosiy identifikatsion rekvizitlarni o'z ichiga oladi:

- korxonaning nomi, mulkchilik shakli, yuridik manzili, bo'ysunishi, identifikatsion raqami va korxonani bilish uchun kerak bo'lgan boshqa rekvizitlar;
- alohida korxonalarni yoki korxonalar guruhining moliyaviy hisobotlarini qamrab olishi, ya'ni bu hisobot jamlangan yoki yagona bo'lishi kerak. Agar hisobot jamlangan bo'lsa, u holda barcha shakllarda «Jamlanma» yoki «Sub'ektlar bo'yicha yakuniy» sub'ektlar soni ko'rsatiladi. Tushuntirish yozuvida jamlangan yakuniy hisobotga kiritilgan hisobotlarning soni ko'rsatilishi zarur;
- moliyaviy hisobot tomonidan qamrab olingan hisobot kuni yoki davri.

2.2 Xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobot shakllari va ularni tuzish amaliyotini takomillashtirish masalalari

Milliy qonunchilik bo'yicha tayyorlanadigan moliyaviy hisobotning tarkibi va mazmuni bo'yicha talablar "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, Buxgalteriya hisobining milliy standartlari va Moliyaviy hisobot shakllarini to'ldirish bo'yicha Qoidalar (ro'yxat raqami 1209, 2003 yil 24 yanvar) bilan belgilangan. Bunda, buxgalteriya hisobi subyektlari buxgalteriya hisobini tashkil etish va hisobotni tuzishning aniq bir yo'nalishi bo'yicha hisob siyosatini shakllantirishda buxgalteriya hisobi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga rioya qilishi lozim.

Bunda moliyaviy hisobot tuzilishining dastlabki asosi sifatida "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot" 1-sonli buxgalteriya hisobining milliy standarti xizmat qiladi.


“Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunining 1-moddasiga muvofiq, buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlari deganda buxgalteriya hisobini tashkil etish hamda hisobot tuzish bilan bog‘liq munosabatlarni, “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonun va boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solish, shuningdek xalqaro shartnomalar qoidalarini qo‘llash munosabatlari tushuniladi.¹⁴

Shunday qilib, agar qonun hujjatlari yoki xalqaro shartnomalarda moliyaviy hisobotni Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va (yoki) moliyaviy hisobotning boshqa standartlariga asosan taqdim etish ko‘zda tutilgan bo‘lsa, bu holda ushbu hisobot ham buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlari doirasida tayyorlangan hisoblanadi.

Ushbu xulosadan ko‘rinib turibdiki, xatto buxgalteriya hisobi doirasida eng yuqori maqomga ega bo‘lgan xujjat ham moliyaviy hisobning xalqaro standarti qoidalarini tan olmoqda. Shunday ekan, biz o‘z buxgalteriya tizimimizni yillar o‘tgan sari sekin-astalik bilan xalqaro standartlarga moslashtirishimiz maqsadga muvofiq.

Xorijiy mamlakatlar amaliyotida moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlariga alohida ahamiyat beradi. Moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlari tashqi foydalanuvchilar uchun asosiy axborot manbai hisoblanadi.

¹⁴O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni, 2016-yil



5-rasm. Chet el mamlakatlarida moliyaviy hisobot tarkibi¹⁵

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda moliyaviy hisobot buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot, taqsimlanmagan foyda to'g'risidagi hisobot va xususiy kapital to'g'risidagi hisobotni o'z ichiga oladi. Bizning mamlakatimizda ham xalqaro standartga moslashtirish ishlari turkumidan ilgari alohida hisobot shakli sifatida kiritilgan «Asosiy vositalarning harakati to'g'risida»gi hisobot moliyaviy hisobot uchun zaruriy bo'lgan shakllar ichidan chiqarib tashlandi.

Moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari o'zaro bog'liq bo'lib, faqat bundan «Pul oqimlari to'g'risida»gi hisobot mustasnodir.

Moliyaviy hisobot shakllarining asosiy yakuniy ko'rsatkichlari bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning sof foyda summasi, taqsimlanmagan foyda va xususiy kapital to'g'risidagi hisobotning xuddi shunday nomdagi ko'rsatkichiga teng bo'lishi lozim.

¹⁵Bolibekov B.O va boshqalar. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O'quv-uslubiy majmua. –Toshkent: 2013.

Aks holda moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining mosligi va haqqoniyligiga putur yetadi. Shuningdek, xususiy kapital to'g'risidagi hisobotning yakuniy o'zlik kapitali summasi buxgalteriya balansining yakuniy xususiy kapital summasiga teng kelishi lozim.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar amaliyotida qo'llanilayotgan moliyaviy hisobot shakllarining tuzilishi bizning mamlakatimizda qo'llanilayotgan moliyaviy hisobot shakllaridan farq qiladi.

Bizning mamlakatimizda qo'llanilayotgan buxgalteriya balansida aktivlar ularning ishlab chiqarish jarayonida ishtirokidan kelib chiqqan holda, eng avvalo, uzoq muddatli aktivlar va keyin joriy aktivlar joylashtirilgan bo'lsa, rivojlangan xorijiy mamlakatlarda qo'llanilayotgan buxgalteriya balansida aktivlar likvidlilik darajasiga qarab joylashtirilgan. Shuningdek, balansning passiv qismida majburiyatlar muddatlarini hisobga olgan holda joylashtirilgan.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning xorijiy mamlakatlar amaliyotida qo'llanilayotgan shakli ko'rsatkichlari bizning mamlakatimizdagidan farq qiladi. Ushbu hisobot shaklida moliyaviy natijalar faoliyat turlari—asosiy, moliyaviy va investitsion faoliyat bo'yicha aniqlanadi.

Mamlakatimizda esa moliyaviy natija asosiy va moliyaviy faoliyat bo'yicha aniqlanadi. Shuningdek, rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ushbu hisobot shakli turli nomlar bilan ataladi. Jumladan, «Foyda va zararlar to'g'risida»gi hisobot deb ham nomlanadi. Ammo ular mazmun jihatdan bir-biriga juda ham yaqin.

Hozirda mamlakatimizda amalda bo'lgan “Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot” shakli bir muncha kamchiliklarga ega. Deyarli barcha korxonalarda odatda Umumxo'jalik faoliyat foydasi va Soliq to'langunga qadar foyda bir xil bo'ladi, bunga sabab Favqulodda foyda va zarar bandlarida o'zgarish kuzatilmasligidir. Bunday hollarda, soliq to'lgangunga qadar foyda ko'rsatkichini olib tashlab, favqulodda foyda va zarar bandlarini umumxo'jalik faoliyat foydasi ko'rsatkichida hisobga olib ketish maqsadga muvofiqroq bo'ladi. Ana shunda korxona soliq solish bazasi sifatida umumxo'jalik faoliyat foydasi ko'rsatkichiga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilsa bo'ladi.

Taqsimlanmagan foyda to'g'risidagi hisobot mamlakatimizda qo'llanilmaydi. Ushbu hisobot shaklini tuzish juda oddiy, shu bilan birgalikda uning ko'rsatkichlari xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy mustahkamligini belgilab beradi.

Chunki, bozor iqtisodiyoti sharoitida qaysi xo'jalik yurituvchi subyektida taqsimlanmagan foyda mavjud bo'lsa va uning summasi uzluksiz ravishda o'sib borsa, bu har xil moliyaviy xarakterdagi risklar uchun mustahkam zaxira jamg'armasining mavjudligini ko'rsatadi.

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot shaklida mamlakatimizdan farqli o'laroq uzoq muddatli moddiy aktivlar to'g'risida ham ma'lumotlar mavjud bo'ladi.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot shakli bizning mamlakatimizdagidan unchalik katta farq qilmaydi. Ammo xo'jalik yurituvchi su'yekt faoliyati uchun o'ta muhim hisoblanadi. Uni tuzishda bevosita va bilvosita usullar qo'llaniladi.

Xo'jalik su'yektlari faoliyatining pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni tuzishda to'g'ri va egri usullarning qo'llanilishi bir-birini to'ldirib boradi hamda hisobot davrida korxonani pul mablag'lari oqimining harakati haqidagi real holatini ko'rsatib beradi.

To'g'ri va egri usullarining qo'llanilishi bir natijaga olib keladi va buxgalteriya hisobining xalqaro standarti bo'yicha Qo'mita ikki usulni ham tan oladi, ammo to'g'ri usulni qo'llanilishi tavsiya qiladi.

To'g'ri va egri usullarning qo'llanish bilan tuzilgan pul oqimlari to'g'risidagi hisobotlari orasidagi farq, faqat operatsion faoliyat natijasidagi pul oqimlarini aks ettirgan bo'limida o'z aksini topadi.

2-BOB BO`YICHA XULOSA

2-bob yakunida shuni ta'kidlashimiz mumkinki, moliyaviy hisobot shakllarini tuzish amaliyoti O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunidan kelib chiqib amalga oshiriladi. Ushbu qonunga muvofiq yillik moliyaviy hisobot quyidagi shakllardan iborat bo'lishi shart:

- buxgalteriya balansi – 1-shakl;

- moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot – 2-shakl;
- pul oqimi to'g'risida hisobot – 4-shakl;
- xususiy kapital to'g'risida hisobot – 5-shakl;
- eslatmalar, hisoblar va izohlar.

Moliyaviy hisobotda korxona hisob yuritish siyosatini aks ettirish paytida quyidagilarga alohida e'tiborni qaratishi lozim:

- daromadning aks ettirilishi;
- konsolidatsiya tamoyillari;
- faoliyat turlarining uyg'unligi;
- qo'shma faoliyat;
- moddiy va nomoddiy aktivlarni va ularning eskirishini aks ettirish;
- jalb qilingan mablag'lar qiymatini kapitalizatsiya qilish;
- kapital qo'yilmalar;
- investitsion mulk;
- moliyaviy investitsiyalar hamda moliyaviy aktivlar;
- ijara;
- tadqiqotlar va rivojlanish bilan bog'liq harajatlar;
- tovar-moddiy zahiralar;
- soliqlar hamda muddati kechiqtirilgan soliqlar;
- zahiralar;
- ishchi va xizmatchilarni asrab turish xarajatlari;
- chet el valyutasini o'tkazish;
- inflyatsiya hisobi;
- hukumat subsidiyalari.

Moliyaviy hisobot shakllari rahbar va bosh buxgalter tomonidan imzolanadi, imzolar muxr bilan tasdiqlanadi.

Moliyaviy hisobotda tuzatish va o'chirishlar bo'lmasligi kerak. Xatolar tuzatilgan taqdirda tegishli ta'kidlar qilinadi, moliyaviy hisobotga imzo chekkan shaxslar tuzatish sanasini ko'rsatgan holda ularni tasdiqlaydilar.

3-BOB “XO`JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MOLIYAVIY HISOBOT SHAKLLARI VA ULARNI TUZISH” MAVZUSINI O`QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

3.1. Mavzuni o`rganishda “Esse” va “Case study” metodlarini qo`llashning nazariy-ilmiy asoslari

Ma'lumki, oliy o'quv yurtini bitirgan mutaxassis berilgan topshiriqni bajarganligi, qilingan ishlar va erishilgan natija, mavjud kamchiliklar va ularni bartaraf qilish yo'llari bo'yicha yozma hisobot bera olishi kerak. Shuningdek, xizmat xati, raport, hisobot, turli muassasa, tashkilotlar o'rtasida yozishmalar, firma, korxona va boshqalar bilan shartnoma kabilarni yozishni bilishi kerak.

Talabalar bo'lg'usi mutaxassis sifatida o'z fikrlarini bayon qilishni, yozma ravishda ifodalashni ham o'rganishlari kerak. Ayniqsa, iqtisodiy sohada yozma hisobot, turli-tuman tashkilotlar, firma, korxonalar bilan biznes bo'yicha sheriklar o'rtasida turli-tuman yozishmalar, xatlar, bildirishnomalar, xizmat yuzasidan aloqalarga tegishli takliflar, tavsiyalar va boshqa yozma hujjatlarni tayyorlashga, yozma ishlarni bajarishga to'g'ri keladi. Buning uchun esa ularda ko'nikma hosil qilish kerak. Bu ko'nikma talabalarning yozma ish yozishlari orqali hosil qilinadi. Tez-tez yozma ish yozish ularning fikrlashini o'zgartiradi, ularni kurs ishi, yakuniy nazorat ishi, bitiruv malakaviy ishi, turli yozishmalar, dissertatsiya yozishga tayyorlaydi. Yozma ish ijodiy fikrlashga o'rgatadi. Uning muallifi o'zining qarashini, fikrini asoslashga o'rganadi.¹⁶

Afsuski, ko'pincha og'zaki ravishda o'z fikrini bimalol o'rtoqlashadigan kishilar yozma ravishda bayon qilishga kelganda juda qiynalishadi. Ana shunday holni kamaytirishning muhim usuli bu talabalarni yozma ish bajarishlaridir.

Talabalarni tez-tez yozma ish yozishlari ularning fikrlash ko'nikmalarini tubdan o'zgartiradi. Ularni kurs ishi, hisobot, bitiruv malakaviy ishi, qolaversa, dissertatsiya ishlarini yozishga tayyorlaydi.

Yozma nutq fikrni har tomonlama o'ylash, aniq ifodalashga, har bir so'zni

¹⁶D.Tojiboyeva. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. “Fan va Texnologiya” - 2007

o'rnida ishlatishga o'rgatadi.

Yozma ishni o'rganilayotgan mavzu bo'yicha boshlash kerak. Belgilangan vaqt 10-15 daqiqa. Dastlab, o'quvchi-talabalar xayollariga shu mavzu bo'yicha nima kelsa, shuni yozishadi. Buning uchun ularni koyimaslik kerak.

O'qituvchi yozma ishlarni yig'ib olib talabalarning intellektual darajasi, mavzuni o'zlashtirishlarini aniqlaydi.

Dars o'tishning yangi uslublari orasida esseyozish ham o'ziga xos o'rin egallab borayapti. U, ayniqsa, yakuniy nazorat ishi yozish uchun tajriba to'plashda qo'l keladi.

Esse (fransuzcha - ESSAI - tajriba, xomaki reja) - muallifning individual pozitsiyasini alohida ajratib ko'rsatish orqali erkin, ko'pincha, paradoksal bayon qilishga yo'naltirilgan falsafiy-estetik, adabiy-tanqidiy, badiiy-publitsistik adabiyot.

Nobel mukofoti laureati V. V. Leontevning «Ekonomicheskie esse. Teorii, issledovaniya, fakty i politika» kitobi nashrdan chiqqach, iqtisodiy mavzularda ham esse yozishga e'tibor berila boshlandi.

Bu usuldan keyingi paytlarda, talabalarni iqtisodiy fikr yuritishga o'rgatish va bilimni baholashda keng qo'llanilmoqda.

Asoslangan esse. Bunday esse qo'yilgan savolga asoslangan javob mavjud bo'lgan yozma ishdur. Muallif muayyan pozitsiyaga ega, u o'z nuqtai nazarini ishonchli dalillar bilan asoslaydi va uni himoya qiladi, o'z pozitsiyasini quvvatlash uchun bir qator dalillarni taqdim etadi. Maqsad muallif o'zi bildirgan fikrga boshqalarni ham ishontirish, qo'llab quvvatlashga undashdir.

Esse uchun mavzular va savollar.

Esse uchun mavzu tanlaganda yoki savol tuzganda quyidagilarga ahamiyat berish kerak :

1) Topshiriqni iloji boricha aniq qo'yish kerak. Shartni shunday qo'yish kerakki, talaba undan nima talab qilinayotganligini tushunsin.

2) Esse topshirig'i fikr yuritishga, tahlil qilishga undaydigan savollar bo'lishi zarur.

3) Esse uchun tayyorlangan savol-topshiriqlarni talabalarga o'qituvchining o'zi tanlab bergani ma'qul. Bunda talabaning bilimi ob'ektiv baholanadi.

4) Kompleks javob talab qiladigan savollarni uyga vazifa tarzida yoki oraliq nazorat, yakuniy nazoratda berish mumkin.

5) Agar vaqt cheklangan bo'lsa, dars davomida eng asosiy momentlarga ahamiyat qaratilgan savollar qo'yish mumkin.

Usulning boshqa usullarga o'xshab o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari mavjud.

Savollarga javob berish uchun berilgan topshiriqlar, axborotlarni tartibga solish, tahlil qila olishga yo'llashi kerak. Mantiqiy masalalarni yechish ulardan foydalanish ko'nikmasini talab qiladi. Bu iqtisodiy fikrlashning yuqori darajasidir. Ularni ob'ektiv testga nisbatan tuzish oson. Uni qo'llashning qiyinchiliklari, javoblarni baholashning qiyinligidir. Shunga qaramay, bilish jarayonini tahlil qilish va baholash uchun essedan zarur axborot olish mumkin.

Essening afzalliklari va kamchiliklari.

Esse ko'proq fikrlash, bilim mazmunining yuqori bosqichiga xos. U talabalarining yozma nutq ko'nikmalarini takomillashtirishga yordam beradi. Uni tuzish nisbatan oson, hamda talabalar tomonidan tavakkal javoblar tanlanishiga yo'l qo'ymaydi.

Asosiy kamchiligi:

a) baholash qiyin;

b) ularni o'qish, tahlil qilish, baholash uchun ko'p vaqt kerak.

Testlar ko'p savolni qamrasa, esseda bir necha savol qo'yiladi. Sababi, ularga javob yozish ko'p vaqt talab qiladi.

Talabalar bilimini sinash doirasi kengayadi. Esse savollarini har bir talaba uchun alohida berish maqsadga muvofiq. Esse natijasi muhokama qilinayotganda original fikr bildirgan talabalarga qo'shimcha ball qo'yish kerak.

Esseni baholash ko'rsatkichlari va mezonlari:

Baholash mezonlari	Maksimal ball
1. Mazmunning mavzuga muvofiqligi	2
2. Muammoni ko‘ra bilishi	2
3. O‘z nuqtai nazarini ko‘rsata olishi	2
4. Fikrini dalillar bilan asoslab berishi	2
5. Muammoga o‘z munosabatini bayon qilish mahorati	2
Jami	10

Ana shu mezon asosida yozilgan esselarni baholagach, dars jarayonidagi reyting ballarga muvofiqlashtiramiz

Esse yozish metodimuallifning individual pozitsiyasini, dunyoqarashini alohida ajratib ko‘rsatish orqali erkin yozma bayon qilishga yo‘naltirilgan, talabalarni iqtisodiy fikr yuritish va uni yozma ravishda ifodalashga o‘rgatadigan va ularning bilimini baholashda qo‘llaniladigan metod bo‘lib, bu metodda savollarni to‘g‘ri tanlay bilish nihoyatda katta rol o‘ynaydi.

Talabalarni qaror qabul qilishga o‘rgatishda muammoli vaziyat hosil qilib, uni yechishni o‘rganish metodi – Sase study method(sase-aniq vaziyat, hodisa, study-o‘qitish) – «keys» katta imkoniyatlarga ega.

Taniqli olim G Spenserning «Ta’limning buyuk maqsadi bilim berish emas, balki hatti-harakatlarga o‘rgatishdir» degan fikri aynan ana shu metodda to‘laroq amalga oshadi. Keys – ishlab chiqarishda sodir bo‘ladigan aniq muammoli vaziyatning tafsilotidir. Jahon pedagogikasida keng miqyosda samarali qo‘llanilayotgan keyslardan foydalanish o‘zlashtirilgan bilimlarni amalda qo‘llashga qaratilgan. Garvard (AQSh) universitetida tahsil olayotgag talabalar, magistrantlar iqtisodiyotda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan muammoli vaziyatni ifodalagan 2,5 ming keysga javob topgach, diplom olish huquqiga ega bo‘lishi, rivojlangan mamlakatlarda o‘quv rejalarida keyslar 20%ni tashkil etishi ham ularni iqtisodiyotni o‘rganishda naqadar ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Keyslar turli-tuman bo‘lib, muammoni qamrab olish miqyosiga ko‘ra: makro,

mikro, mini va umumiy keyslarga, maqsad-mazmuniga ko'ra: strategik va taktik keyslar, muammoli vaziyatning yuz bergan, bermaganiga ko'ra: real voqeyelikka asoslangan, voqelik imitatsiya qilingan va boshqa turdagi keyslarga bo'linadi.

Bu metodning boshqalaridan farqi shuki, talaba muammoli vaziyatni o'rganib, xulosa chiqarish, qaror qabul qilish, undan qanday chiqib ketishni o'rganadi. Bu metod talabalardan atroflicha bilimga ega bo'lishni talab qiladi. Chunki qaror qabul qilish nafaqat iqtisodiyot, balki faoliyatni tashkil etish, ish yuritish, axborot va ular bilan ishlash, sotsiologiya, psixologiya va boshqa fanlardan ham bilimdonlikni talab qiladi.

- Keys talabalarga real voqelikdan kelib chiqib, muammoli vaziyatlarni modellashtirish imkonini beradi, amaliyotda aniq vaziyatga tashhis qo'yish g'oyalarni shakllantirish, gipotezalar ishlab chiqish, muammolarni ajratish, qo'shimcha qanday axborotlar to'plash zarurligini tezda ilg'ash, muammoni yechish bo'yicha zarur chora-tadbirlar ishlab chiqishni o'rgatadi.

- Keys talabalarga muammoli vaziyatlarni tahlil qilish uni yechish, identifikatsiya qilish bo'yicha erkin yo'llarini tanlash imkonini beradi.

- Keys talabalarga uni muhokama qilish jarayonida o'zaro muloqotda bo'lish, boshqalarni fikrini eshitish va unga o'z munosabatini bildirishni o'rgatadi.

- Keys nazariy bilimlarni, ko'nikma va mahoratlarini amalda qo'llash-ga o'rgatadi. Bu metodning yana bir muhim tomoni shundaki, u nazariyani amaliyot bilan bog'laydi. Shuning uchun ham ko'pchilik pedagoglar keysga ishlab chiqarishda yuz beradigan aniq muammoli vaziyatning tafsiloti sifatida qarashadi. Keyslar mazmuni, qamroviga ko'ra: mikrokeys, minikeys, umumiy keys-larga, qo'yilgan maqsadga ko'ra taktik, strategik keyslar va boshqa turlarga bo'linadi.

Metodni qo'llashda maqsadni aniqlash va muammoni qo'yishga alohida e'tibor berish kerak. Qo'yilgan muammo aniq, barchaga tushunarli bo'lishi zarur. Muammoni o'rganish, yechish bosqichlariga ko'ra, maqsadlar belgilanadi. Bular:

1. Muammo bilan tanishish.
2. Zarur axborot yig'ish, ular asosida mavjud vaziyat, holatni aniqlash.
3. Olingan bilimni amaliy faoliyatda qo'llashni o'rganish.

4. Olingan natijalarni o'rganish, tahlil qilish asosida qaror qabul qilish.

Hozirgi kunda ko'rinib turibdiki, har qachongidan ham yoshlarni murak-kab masalalarni yechishni bilishlari va axborotlarni tahlil qilish asosida, chuqur o'ylab qaror qabul qilishni o'rganishlarini hayotning o'zi taqozo qiladi.

Tanqidiy va taxlil qilib fikr yuritish, ma'lum bir savol bo'yicha o'z fikriga ega bo'lishi va uni mantiqiy mushohada qilish asosida himoya qilishni o'rganishni talab qiladi.

Taxliliy fikr yuritish orqali inson u yoki bu g'oyalar bilan tanishar ekan, uni amalga oshirilishi qanday oqibatlarga olib kelishini his qilishga o'rganadi. Buning natijasida bilish an'anaviy jarayon sifatida individu-allikni ruyobga chiqaradi va chuqur mushoxoda yuritish, uzluksiz va mahsuldor bo'lishi ta'minlanadi.

Tanqidiy xamda taxliliy fikr yuritish esa ma'lum bir o'quv jarayoni muxitida shakllantiriladi.

Taxliliy fikrlash o'quvchi – talabalarda vaziyatni baholash, asoslangan qaror qabul qilishni, shaxs sifatida kamol topish uchun sharoit yaratadi.

Boshqa metodlar kabi «Aqliy hujum» va «case study method»ining ham o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari mavjud. «Aqliy hujum», case study (keys stadi) metodini qo'llash:

- Tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi va ob'ektiv bo'lishga o'rgatadi, ob'ektiv baho berishga intilish kuchayadi.
- Axborotlarni ichidan eng zarurlarini tanlab olishga, tahlil qilish, xulosa chiqarish va qaror qabul qilishga o'rgatadi;
- Turli axborotlar o'rtasida o'zaro bog'liqlikni ko'ra bilish malakasini hosil qilishga yordam beradi;
- Boshqalarni fikriga diqqat qilish, boshqalar bilan fikr almashishni o'rgatadi;
- Savol berish va boshqalar bilan samimiy bo'lishga o'rgatadi;
- Intuitiv ravishda his qilishni rivojlantiradi;
- Mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi;
- Talabalarni o'zaro munosabatlariga ijobiy ta'sir qiladi.

Shu bilan birga case study (keys stadi) metodi o'zining amaliyot bilan boshqa

metodlarga nisbatan yaqinligi tufayli:

- Nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash tajribasini o'rgatadi;
- talabalarga bilim, tajriba, kuzatuvlar nuqtai nazaridan muammo yechimiga turlicha yondashuvlar bilan tanishish imkonini beradi.
- Vaziyatga bog'liq ravishda muqobil yondashuvlarni tadqiq qilish uni o'zicha taxlil qilish, muammoni ko'ra bilish tajribasini o'rgatadi;
- Boshqarishni, o'z fikrini qat'iy himoya qilishni, boshqalar oldida o'z fikri, xulosa va dalillarini asoslashga o'rganadi. Boshqaruvda sodir bo'ladigan jarayonlarni yaxshi tushunishga imkon beradi;
- Turli yechimlar qabul qilish va qabul qilingan qarorlar uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga ola bilishni o'rgatadi;
- Muammoni amaliy yechish ko'nikmasini shakllantiradi va rivojlantiradi, muammoli vaziyatdan chiqishni o'rganishga ko'maklashadi;
- Muammoning yagona yechimi yo'qligi va uning boshqa muqobil variantlari borligini o'rgatib boradi.
- Nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olishni namoyish qiladi.
- Ko'plab yechimlar topish va ulardan to'g'risini tanlash imkonini beradi;

Aqliy hujum, keys stadi metodi o'quvchi talabalarni darsda faol qatnashishlari va olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash imkonini berishi bilan birga bu metodni boshqa metodlar bilan birgalikda qo'llash mumkin. Bu jihatdan keys metodining imkoniyatlari keng, uni turli tarzda qo'llash mumkin. Ayniqsa, modellashtiruvchi o'yin tarzida o'tkazish imkoniyati katta hamda kutilgan natijaga erishish imkoni yuqori. Shuning uchun bu metodni ko'pincha, taqlid qilish, imitatsiya metodi sifatida ham ko'riladi.

3.2“Xo`jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobot shakllari va ularni tuzish” mavzusini o`qitishda “esse” va “case study” metodlarini qo`llash samaradorligini oshirish

Iqtisodiy fanlarni o`qitishda xususan, “xo`jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobot shakllari va ularni tuzish” mavzusini o`qitishda “esse” metodini qo`llash qator afzalliklarga ega. Ayniqsa dars davomida o`tilgan mavzuni umumlashtirish va talabalar ongida shakllantirish uchun dars so`ngida ulardan aynan esse yozishni so`rash ulkan samara beradi. Ushbu jarayonni quyidagicha ifodalashimiz mumkin. O`rganilayotgan mavzu bilan bog`liq biror-bir matn parchasi o`qil-gandan so`ng yoki biror bir muammoli mavzu bo`yicha o`tkazilgan mu-nozaradan so`ng talaba(o`quvchi)larga ma`lum vaqt berilib, ularning o`z fikrlarini erkin va yozma ravishda ifodalashga imkon berish ham ijobiy natijalarga olib keladi. Bu hol talabalarga muammoni (mavzuni) hech kimdan tortinmasdan erkin ravishda fikrlash imkonini beradi, ularning ijodiy imkoniyatlarining ko`z ilg`amas qirralarini rivojlantirishga olib keladi. Ya`ni, «har bir o`quvchida ham geniylikning bir bo`lagi mavjud». Shunday qilib, bunda talaba/o`quvchilar berilgan muddatda matn (mavzu, muammo) haqida o`z fikrlarini to`xtamasdan yozadilar. Agar ulardan birortalari men nima yozishni bilmayapman desa, xuddi shu gapni yozib qo`yishlarini so`rasangiz, maqsadga muvofiq bo`ladi. Demak, bunda asosiysi to`xtovsiz va tez yozish, uni qayta o`qimaslik, tuzatmaslik. Ushbu yozma ish (esse) bajarib bo`linganidan so`ng ko`rib chiqish va tahlil qilish mumkin, bunda asosiy g`oyalarga, fikrlarga nazar solib, o`ylagandan so`ng, uni yangi yozma ishni bajarish mumkin. Albatta, bu holda oldingi bosqichdagi hamma chala va chuqur o`ylan-magan fikrlar olib tashlanadi hamda yozma ish bir qadar tugallangan holatga keladi.

Buxgalteriya hisobi xo`jalik yurituvchi subyekt faoliyatining eng muhim bo`ginlaridan hisoblanadi. Korxona buxgalterida mavjud bo`lgan yoki u shakllantirgan ma`lumotlar asosida korxonani deyarli barcha faoliyat sohalarini tahlil qilish mumkin. Demak, korxona buxgalteri korxona faoliyatida rahbardan kam bo`lmagan rolni egallaydi. To`g`ri, buxgalteriya boshqaruvda hech qanday

buyruqlar chiqarmas, lekin korxona moliyaviy ahvolining barqarorligi, soliq va boshqa majburiy to'lovlar hamda xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatiga qiziquvchi va kuzatib boruvchilarga taqdim etilgan ma'lumotlar ko'rinishi bevosita buxgalteriya bo'limi orqali amalga oshiriladi. Shunday ekan, o'sha korxonalar rivoji yo'lida kasbga tegishli bo'lgan nazariy va amaliy bilimlarni puxta egallagan, o'z ishiga ma'suliyat bilan yondoshadigan, professionallikka e'tibor qaratadigan malakali buxgalterlarni yetishtirib berish ta'lim tizimida alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun, bo'lajak buxgalterlarga ta'lim beruvchi pedagogdan fan dasturiga kiritilgan har bir mavzuni o'rgatish bo'yicha alohida yondoshishni, metodlarni eng samaralilarini tanlab olib, uni amalda qo'llashni talab etadi. Buxgalteriyani bir maromda o'qitish qiyinchilik tug'diradi. Chunki, buxgalteriya shunday fanki, o'quvchi o'tilgan mavzularning birontasini o'zlashtira olmasa, undan keyingi mavzularni tushunishi shuncha qiyinlashadi. Xususan, "Xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobot shakllari va ularni tuzish" mavzusini o'rganish uchun o'quvchi talabalar umumiy buxgalteriya hisobining xech bo'lmasa nazariy qismidan xabardor bo'lishi lozim. Chunki, moliyaviy hisobotlarda aks ettirilishi lozim bo'lgan har bir ma'lumot hisobotgacha bo'lgan buxgalter olib borgan jarayon natijasida kelib chiqadi. Moliyaviy hisobotlarni tuzishga qaratilgan mavzularni mustaqil o'rganish bo'yicha topshiriqlar ishlab chiqish nazariy jihatdan o'rganilganda zamonaviy o'rganish usullaridan foydalanmasdan, faqatgina an'anaviy metodlardan foydalangan holda talabalarga ta'lim berish noto'g'ri bo'ladi. Mavzuimizni nazariy qismini ham amaliy jihatlariga e'tibor qaratgan holda olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, buxgalteriya shunday tashkil etilganki, uni faqatgina to'liq nazariy bilimlarga ega bo'lgan holda amalga oshirib bo'lmaydi.

Mustaqil o'rganish uchun talabalarga beriladigan keys talabalarning salohiyatini hisobga olgan holda tashkil etilishi kerak. Hali mavzuni tushunib yetmagan talaba darsdan tashqari mustaqil nimadir o'rganadi degan fikrdan yiroq bo'lish kerak. Ularga qo'shimcha qilib, mavzu bo'yicha ko'pchilik talabalar darhol anglab ololmaydigan jihatlari haqida savol tuzish ham mumkin. O'qituvchi bunday

paytda, o'z tajribasiga suyanishi va o'tgan yillarda muammoga aylangan holatlar bo'yicha atroflicha ishlashi kerak.¹⁷

Agar biz to'laqonli o'quv maqsadini belgilab olmasak samarali mustaqil ta'limni tashkil etolmaymiz!

“Case study” o'quvchi talabaning murakkablik darajasi turlicha bo'lgan topshiriq va vazifalarni auditoriyada hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarib, o'zida bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatidir.

Eng muhimi, pedagog keys uchun topshiriq tanlayotganda o'quvchilarning holatini hisobga olishi lozim. Barcha guruhlarda ham o'quvchilar birdek salohiyatga ega bo'lmaydi. Kimdir aktiv dars jarayoniga qiziqadi, kimdir esa aksincha.

Har bir o'qituvchi ma'lum bir fanni yoki sohani nazariy va amaliy jihatdan chuqur bilganliklari holda, ikki asosiy talabga (savolga) javob berishga tayyor bo'lishlari zarur:

1. Men dars bermoqchi bo'lgan (fan/soha/predmet) bilan talaba-larning oldingi o'quv yoki hayot tajribasi orasida qanday bog'liqlik mavjud?

2. Men dars bermoqchi bo'lgan (fan/soha/predmet) bilan talabalarning shaxsiy istak va maqsadlari orasida qanday bog'liqlik bor?

Bu nuqtayi nazar asosida o'quvchi(talaba)lar o'qish-o'rganish jarayonida ma'lumotni sust qabul qiluvchilar emas, balki bilim olish jarayo-nining faol qatnashchilaridir degan g'oya yotadi. Ular o'zlarining o'quv yoki hayotiy tajribalari hamda shaxsiy istak va maqsadlari asosida dars jarayonini tashkil qiladilar va o'rganadilar. O'qituvchi esa ularga maslahatchi, yo'l ko'rsatuvchi va kerak bo'lganda, o'z bilimining asosiy qismlarini yetkazuvchi hamda ularni tushuntiruvchidir. O'quvchi(talaba)lar musxohada va munozara orqali tegishli fanni chuqur egallashga erisha-dilar, bu bilan kelajak hayotga va ilmiy izlanishlar uchun puxtarok tay-yorgarlikdan o'tadilar. Faol muloqot vositasida dars beruvchi

¹⁷Fayziyev Sh., Meliyev I. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2010.

o'qituvchi bilim olish jarayonini talabalar va o'zining faol muloqoti orqali amalga oshiriladi deb tushunadi (va bunga astoydil ishonadi) hamda uni xilma-xil usullar yordamida ro'yobga chiqaradi.

Muammolarning qiziqarli tomonlarini tushunish va ko'ra olish hamda buni ma'lum bir mohirona harakatlar vositasida namoyish etish usulida o'qituvchilar har bir dars bilan bog'liq bo'lgan tadbir va o'yinlar tashkil qilish orqali, o'quvchi (talaba)larning hayotiy tajribasidan kelib chiqqan holdagi qiziqarli holatlarni tahlil qilish, ularning qiziqishlari va intilishlarini inobatga olishga harakat qiladilar. Dars berish va biror-bir narsani o'rganishda loqaydlikka (sustlikka) aslo yo'l qo'yilmaydi. Har bir talaba(o'quvchi) o'zining qiziqishi, iste'dodi va imkoniyatiga bog'liq ravishda nimagadir jalb qilinadi, qiziqtiriladi hamda ular bundan qandaydir ma'naviy qoniqish hosil qiladilar. O'rganilayotgan soha bilan bog'liq ishbilarmon o'yinlar, qiziqarli holatlar, Case Study (ishlab chi-qarish bilan bog'liq hayotiy misollar)lar, hikoyalar, hodisalar, muam-molarni jonli ravishda ifodalash va bu bilan o'quvchi (talaba)larda bilim olish uchun intilish uyg'otish o'qituvchidan katta mahorat va bilim talab qilishi tabiiy, albatta.

“Xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobot shakllari va ularni tuzish” mavzusi yuzasidan “Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tuzish” bo'limi uchun ham quyidagi keysni ko'rib chiqish mumkin. Ushbu keys nisbatan sodda bo'lib, uni o'qituvchi “Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tuzish” mavzusi o'tilgan kunning o'zida vazifa qilib bersa bo'ladi:

Case study. “Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot”ni tuzish

Hisobot yilining I-choragiga “Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot ”ni tuzish uchun o'tgan yilning shu davrida quyidagi ma'lumotlarga egamiz:

Moliyaviy natijalar tuzish uchun mavjud ma'lumotlar

K O' R S A T K I C H L A R	Satr kodi	O'tgan yilning shu davrida	
		Daromad	Xarajat
Mahsulot(tovar,ish,xizmat)larni sotishdan sof tushum	010	187 600	
Sotilgan mahsulot(tovar,ish,xizmat)lar tannarxi	020		101 160
Mahsulot(tovar,ish,xizmat)larni sotishdan yalpi foyda	030	86 440	
Davr xarajatlari, jami	040		15 295
Jumladan:			
sotish xarajatlari	050		4374
ma'muriy xarajatlar	060		7490
boshqa muomala xarajatlari	070		3431
Asosiy faoliyatdan olingan foyda	100	71 145	
Daromad (foyda) solig'i	250		8537
Foydadan boshqa soliqlar va yig'imlar	260		3756
Hisobot davrining sof foydasi (zarari)	270	58 852	

Keys sharti.

1. Berilgan ma'lumotlar va 1-masalaning ma'lumotlaridan foydalanib hisobot yilning I-choragi uchun 2-shakl bo'yicha "Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot" tuzilsin.

Ushbu keysni yechish mavzuni to'liq o'rgangan o'quvchida xech qanday muammo tug'dirmaydi, uni yechish uchun o'quvchi mavzu davomida o'tilgan formulalardan foydalanadi. Bundan tashqari keys talabalarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otadi hamda ularda amaliy ko'nikma shakllanishiga yordam beradi.

Umumiy qilib shuni aytishimiz mumkinki, bo'lajak iqtisodchi talabalarining mutaxassislik bo'yicha yozma nutqini shakllantiish masalasi ham pedagog, ham o'quvchilar uchun hamon qiyinchilik tug'dirmoqda. Ishonamizki, esse metodidan darslarda faol foydalanish ushbu masalani hal qilishdagi asosiy yechimlardan bo'ladi.

Bundan tashqari, talabalarda o'tilayotgan mavzuni amaliyot bilan uzviy bog'lash (ayniqsa, buxgalteriyada) hamda ularda amaliy ko'nikma xosil qilish uchun darslarda case study metodidan foydalanish ularda qo'shimcha tarzda yana bir qancha ko'nikmalarning hosil bo'lishiga sabab bo'ldadi. Xususan, ularda

mantiqiy hamda ijodiy fikrlash, muammmoni tez va oson usullar orqali hal qilish, masalaga amaliy tomondan yondashish kabi qobiliyatlarning ham namoyon bo`lishiga turtki beradi.

3-BOB BO`YICHA XULOSA

3-bobga xulosa qilib shuni aytmoqchimizki, mavzuni o`rganishda esse hamda case study metodlaridan foydalanish o`zining ko`plab afzalliklariga ega. Xususan esse metodini qo`llash orqali talaba yoritilayotgan mavzuga o`zining subyektiv bahosini berish imkoniyatiga ega bo`ladi, shuningdek, undan nostandart hamda ijodiy fikrlash, o`z nutqini yozma tarzda bayon eta olish talab qilinadi. Esse yozishdan avval talabalar mavzuni nazariy jihatdan chuqur o`rganishlari lozim bo`ladi, ular masalani yoritish jarayonida o`z fikrlarini xronologik hamda strukturaviy tarzda qog`ozga tushurish ko`nikmasini xosil qilishadi.

Bundan tashqari esse yozishda talabalarga qo`yiladigan bir qator talablar mavjud:

- Yoritilayotgan mavzuning mohiyatini to`liq anglash
- Esseni strukturaviy jihatdan to`g`ri shakllantirish
- Asosiy mavzudan chetlashmagan holda masalani yoritish
- Tahlil qilinayotgan mavzu haqida aniq faktlar keltirish
- Imkon boricha takrorlardan kam foydalanish

Case study metodidan ham aynan iqtisodiy fanlarni o`rganishda, ayniqsa buxgalteriyada keng miqyosda foydalaniladi. Ushbu metod amaliy muammoli vaziyatlarni tahlil qilib unga yechim topish asosiga qurilgan bo`lib, uning maqsadi talabalarda iqtisodiy qonunlarning amaliyotda qay tarzda amal qilishini o`rganish, boshqacha qilib aytganda nazariya va amaliyotni bog`lash hisoblanadi.

O`z navbatida keys ham bir qator talablarga javob berishi kerak:

- Ma`lum guruhlarga moslangan qiyinlik darajasiga ega bo`lishi
- Yoritilayotgan muammoning barcha jihatlarini ochib berishi
- Muammoning aktuallik darajasi juda tez eskirib qolmasligi
- Tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishi
- Bir yoki bir nechta yechimlarga ega bo`lishi

XULOSA VA TAVSIYALAR

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, iqtisodiy yo'nalishlardagi ta'lim yo'nalishlarida zamonaviy o'quv jarayonini tashkil etish, ularda ta'lim olayotgan o'quvchi-talabalarga mukammal iqtisodiy tafakkur g'oyalarini singdirish bugungi kundagi eng muhim dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, biz tomonimizdan o'rganilayotgan buxgalteriyaning tarkibiy mavzularidan sanalgan "Xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobot shakllari va ularni tuzish" bo'yicha sifatli o'quv jarayonini tashkil etishda eng avvalo uning nazariy asoslarini chuqurroq o'rganishni taqozo etadi. Chunki, mavzu bo'yicha amaliy muammolarni o'rganish, tahlil qilish va yechish uchun eng avvalo mazkur mavzu bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etishda pedagogga nazariy bilim zarur bo'ladi. Nazariy bilimni chuqur o'rganmasdan turib amaliy ta'limni tashkil etib bo'lmaydi. Shuningdek, chuqur o'rganilgan nazariy bilim turli metodlarni qo'llashda va uni uyg'unlashtirish jarayonini olib borishda qo'l keladi.

Mavzu bo'yicha "esse" va "case study" metodlarini qo'llagan holda topshiriqlar ishlab chiqishda va samarali o'quv jarayonining asosiy shakllaridan hisoblangan ma'ruza va amaliy mashg'ulotda zamonaviy ta'lim jarayonini tashkil etishda faqatgina «Xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobot shakllari va ularni tuzish» ni tashkil qilish va o'tkazish tartibining nazariy jihatlarini bilan cheklanish fikrimizcha noto'g'ri hisoblanadi. Chunki, o'rganilayotgan mavzumiz bevosita buxgalteriya fanining hal qiluvchi qismi bo'lib, uning amaliy jihatlarini, hamda o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish zaruriyatini tug'diradi.

Mavzumiz bevosita amaliyot bilan bog'liq, nazariy ko'nikma bilan cheklanish va amaliy xususiyatlarini e'tiborga olmaslik biz tomonimizdan o'rganilayotgan mavzu bo'yicha amaliyotdagi real muammolarni yechishni murakkablashtiradi. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar ishlab chiqish metodi orqali o'quv jarayonini tashkil etishda va o'quvchi-talabalarning mustaqil o'rganishlari uchun shart-sharoit yaratish hamda ular

samaradorligini oshirishda turli o'qitishning ta'lim texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bugun iqtisodiyotda yangidan-yangi masalalarning yuzaa kelayotgani va yosh kadrlardan ularni tezkorlik bilan amaliy hal qilish talab etilayotgani ushbu bitiruv malakaviy ishida keltirib o'tilgan metodlarning ahamiyatini yanada oshiradi.

Bitiruv malakaviy ishining mavzusini yoritishda mavzuga doir o'quv, ilmiy adabiyotlar, hujjatlar bilan tanishib chiqildi. Bitiruv malakaviy ishning masalasini yoritishda esa, mustaqil ta'limni tashkil etishdagi muammo va kamchiliklarni inobatga olib qo'shimcha ravishda talabalarning individual xususiyatlari, bilimlarini sinash usullari tavsiya qilinadi.

Bitiruv malakaviy ishida ta'lim yo'nalishlarida "Xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobot shakllari va ularni tuzish" mavzusini o'qitishning samarali shakli sifatida "esse" va "case study" metodlarini qo'llash masalalari ko'rib chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishning yakunida xulosa qilib, quyidagi takliflarni berib o'tamiz:

1. Foydalanilayotgan keys ma'lum maqsadga yo'naltirilgan xarakterda bo'lishi, biror bir amaliy muammoni keltirib o'tishi lozim.
2. Taklif etilgan keys talab doirasida bo'lishi, ya'ni talabalarning nazariy va amaliy tayyorgarligini e'tiborga olib tuzilishi lozim.
3. Dastlab talabalarda esse metodidan foydalangan holda eng oddiy ko'nikmalarini shakllantirish darkor.
4. "Case study"da berilayotgan topshiriqlar iloji boricha nostandart bo'lib, tayyor andoza va modellarga aynan mos bo'lmasligi lozim.
5. Esse yozida hamda keys ishlashda turli o'quvchilarda bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashga turlicha vaqt ketishini hisobga olgan holda o'quvchilarga differentsial yondashish zarur.
6. Berilgan keys talabalarda qiziqish uyg'otish uchun ularning amaliy ahamiyati ochib berilishi kerak.

7. Mavzuga keys tanlashda xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yish lozim.

8. Mustaqil ta'limni tashkil etishda o'qituvchi ma'ruzasi bilan talabaning keys topshiriqlari uzviy bog'langan bo'lishi darkor.

9. Har qanday turdagi keys topshiriqlarini bajarishda boshqaruvchi rolini o'qituvchi talabalar bilan bo'lishishi lozim.

10. O'qituvchi talaba tomonidan bajarib kelingan har bir esse hamda keys topshiriqlarini tekshirishga alohida e'tibor berishi kerak.

11. Iqtisodchi talabalar yozma nutqini shakllantirishda aynan esse metodidan faol foydalanish maqsadga muvofiq.

12. Yaqin kelajakda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan muammolarga tezkorlik bilan javob qaytarish maqsadida sohaga doir rivojlangan mamlakatlar "Case study" topshiriqlaridan foydalanish lozim.

Bitiruv malakaviy ishini yoritishda turli jadval, chizma, slaydlar tayyorlandi.

Kelajakda bitiruv malakaviy ishida ko'rib chiqilgan masalalar, ular yuzasidan taklif etilgan ko'rsatmalar "Xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobot shakllari va ularni tuzish" mavzusida dars berish jarayonida foydalanilsa, talabalarining faolligiga erishishda yordam beradi deb o'ylaymiz.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da belgilanganidek, butun ta'lim tizimini tubdan isloh qilish jaryoni ketmoqda ekan, ushbu bosqichda nazariya va amaliyotni o'zaro bog'lash, albatta o'zining samarali natijalarini beradi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Normativ - huquqiy hujjatlar:

1. “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi” T.: O‘zbekiston 2014
2. “O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni 2016-yil
3. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

asarlari va ma‘ruzalari:

4. Mirziyoyev SH.M. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” T. “O‘zbekiston” NMIU, 2017
5. Mirziyoyev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” T. “O‘zbekiston. NMIU, 2017
6. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T. “O‘zbekiston”. NMIU, 2017
7. Karimov I.A. “Barkamol avlod orzusi”. T. “Sharq”. 1998, 83-bet.

Darslik va o‘quv adabiyotlari:

8. 15-sonli “Buxgalteriya balansi” nomli buxgalteriya hisobi milliy standarti
9. 3-sonli “Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot” nomli Buxgalteriya hisobi milliy standarti
10. 9-sonli “Pul oqimi to‘g‘risidagi hisobot” nomli Buxgalteriya hisobi milliy standarti
11. N.Yu.Jo‘rayev. Moliyaviy hisobot. O‘quv qo‘llanma. TDIU. T.: 2007
12. Ibragimov A. va boshqalar. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. –T.: Iqtisod-moliya, 2008.
13. F.G‘ulomova “Buxgalteriya hisobini mustaqil o‘rganish uchun qo‘llanma” T: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” 2009.
14. Bolibekov B.O va boshqalar. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O‘quv-uslubiy majmua. –Toshkent: 2013.

15. D.Tojiboyeva. “Maxsus fanlarni o`qitish metodikasi”. O`quv qo`llanma –T: “Fan va Texnologiya” – 2007
16. Fayziyev Sh., Meliyev I. Maxsus fanlarni o`qitish metodikasi. O`quv qo`llanma. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2010.